


K.A. Tursunmetov, U.Q.Valiyev,  
X.Yu. Mavlyanov, I.X. Xamidjonov

# YARIMO'TKAZGICHALAR FIZIKASIDAN MASALALAR VA SAVOLLAR TO'PLAMI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**K.A. Tursubmetov, U.Q.Valiyev, H.Yu. Mavlyanov, I.X. Xamidjonov**

**YARIMO'TKAZGICHALAR FIZIKASIDAN  
MASALALAR VA SAVOLLAR TO'PLAMI  
(O'quv qo'llanma)**

**Toshkent  
“Universitet”  
2012**

Ushbu qo'llanma yarimo'tkazgichlar fizikasining barcha bo'limlarini qamrovchi masalalar, shu jumladan elementar va 4 xil qiyinlik darajasidagi masalalar (qiyin masalalar yechimlari bilan), nazorat savollari va testlar to'plamidan iborat bo'lib, ta'limning barcha bosqichlarida (maktablar, akademik litsey, o'rta maxsus o'quv yurtlari, bakalavr va magistraturada) ta'lim olayotganlar uchun mo'ljallangan.

Fizika - matematika fanlari doktori, professor S.Z.Zaynobidinov tahriri ostida

Taqrizchilar: Toshkent Davlat Texnika universiteti professori N.F.Zikrillaev  
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti N.A.Nurmatov

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlari o'quvchilari, fizika yo'nalishi (440000) va mutaxassisligi bo'yicha bakalavr (5440100 - fizika, 5440300 - astronomiya) va magistrleri (5A440103 - yarimo'tkazgichlar fizikasidan ) uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan.

ISBN 978-9943-328-85-3



## Kirish

Ushbu o'quv qo'llanma 4 xil qiyinlik darajasidagi savol, masala va testlar to'plamidan iborat. Birinchi va ikkinchi qiyinlik darajadagi savollar, mashqlar va masalalar to'plami elementar fizika hajmidagi vazifalar bo'lib, ular o'rta maxsus o'quv yurtlari o'quvchilari hamda yarimo'tkazgichlar fizikasidan masala yechishni o'rganmoqchi bo'lgan bakalavrlar uchun mo'ljallangan.

Uchinchi qiyinlik darajadagi masalalar esa fizika yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavrlarning mustaqil yechishlari uchun mo'ljallangan.

To'rtinchi qiyinlik darajadagi masalalar fizika yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavrlar hamda (fizika mutaxassisligi bo'yicha shug'illanayotgan) magistrlarga mo'ljallangan bo'lib, barcha masalalarning yechimlari keltirilgan.

Testlar to'plami bakalavr kursini bitiruvchilar hamda yarimo'tkazgichlar fizikasi mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga kiruvchilar uchun mo'ljallangan.

Shu jumladan, yarimo'tkazgichlar fizikasining barcha bo'limlari bo'yicha nazorat savollari keltirilganki, ular shu kurs bo'yicha oraliq va yakuniy nazoratga tayyorlanish, magistratura va aspiranturaga kirishga tayyorgarlik ko'rishga imkon beradi.

O'quv qo'llanmadagi barcha savol, mashq va masalalarni ishlab chiqqan o'quvchilar yarimo'tkazgichlar fizikasining deyarli barcha bo'limlarini nazariy ham amaliy qayta ishlab chiqqan bo'ladi.

Shunday qilib, ushbu qo'llanma yarimo'tkazgichlar fizikasidan masala yechish bo'yicha universal qo'llanma bo'lib, o'rta maxsus o'quv yurtlari o'quvchilari, fizika yo'nalishida taqsil olayotgan bakalavrlar hamda yarimo'tkazgichlar fizikasi mutaxassisligi bo'yicha shug'illanayotgan magistrlur va aspirantlarga mo'ljallangan.

Mualliflar o'quv qo'llanmaning yanada yaxshilanishiga qaratilgan taklit va mulohazalar uchun oldindan minnatdorchilik bildiradilar.

## 1 - QIYINLIK DARAJADAGI MASALALAR

- 1.1. Aralashma (kirishma) o'tkazgichlar va izolyatorlar qarshiligiga qanday ta'sir qiladi?
- 1.2. Temperatura o'zgarganda sof yarimo'tkazgichlar elektr qarshiligi qanday o'zgaradi?. Uiarda o'ta o'tkazuvchanlik kuzatiladimi?
- 1.3. Termistorning ishslash tamoyili nimaga asoslangan?
- 1.4. Sof yarimo'tkazgichlar qanday tok tashuvchi zaryadlarga ega?
- 1.5. Qanday sababga ko'ra elektron - kovak juftligi hosil bo'ladi?
- 1.6. Nima uchun tashqi sharoit o'zgarmaganda elektron - kovak juftligi to'xtovsiz hosil bo'lib tursa ham ularning soni o'zgarmaydi?
- 1.7. Yarimo'tkazgichlarda kovakli o'tkazuvchanlik qanday hosil qilinadi? Elektron o'tkazuvchanlikchi?
- 1.8. Temperatura o'zgarganda yarimo'tkazgichlar qarshiligi qanday o'zgaradi?
- 1.9. Nima uchun erkin zaryad tashuvchilar p-n o'tishda ushlanib qolmaydi?
- 1.10. Nima uchun p-n o'tishda bir xil kuchlanish berilganda ham to'g'ri tok teskari tokka nisbatan katta bo'ladi?
- 1.11. Nima uchun yarimo'tkazgichli ventilni tokka to'g'ridan - to'g'ri nagruzkasiz ulab bo'lmaydi?
- 1.12. Nima uchun temperatura ortishi bilan p-n o'tishning tokni to'g'rilaish xususiyati pasayadi?
- 1.13. Nima uchun tranzistorlarda baza kengligi kichik bo'lishi kerak?
- 1.14. Nima uchun tranzistor emitterida aralashma (kirishma) konsentratsyasi bazanikiga qaraganda katta?
- 1.15. Qanday energiya hisobiga tranzistor signalni kuchaytiradi?
- 1.16. Mutloq sof o'tkazgichlar va dielektriklarning elektr qarshiligiga aralashmalar qanday ta'sir ko'rsatadi?
- 1.17. Termistorning ishslash prinsipini tushuntiring.
- 1.18. Zanjirning bir qismida o'tkazgich va yarimo'tkazgich parallel ulangan. Bu qismda kuchlanishni o'zgarmas deb hisoblab, o'tkazgich va yarimo'tkazgich qizdirilganda zanjir qismidagi kuchlanishlar qanday o'zgaradi?
- 1.19. Zanjirning bir qismida metall va yarimo'tkazgich ketma - ket ulangan. Bu qismda kuchlanishni o'zgarmas deb hisoblab, o'tkazgich va yarimo'tkazgich qizdirilganda zanjirdagi tok kuchi qanday o'zgaradi?
- 1.20. Sof yarimo'tkazgichda elektr zaryad tashuvchilar miqdori qanday nisbatda bo'ladi?
- 1.21. Yarimo'tkazgichlarda elektron - kovak jufti hosil bo'lishiga nima sabab bo'ladi?
- 1.22. Magniy va tellurning  $20^{\circ}\text{C}$  temperaturadagi solishtirma qarshiliklari mos holda  $0,04 \cdot 10^6$  va  $5000 \cdot 10^6 \Omega \cdot \text{m}$  ga teng. Bu ikki moddadan qaysi biri yarimo'tkazgich bo'ladi?

- 1.23. Kremniy absolyut nol temperaturaga yaqin temperaturagacha sovitilsa, u o`ta o`tkazuvchan bo`ladimi?
- 1.24. Elektronlar va kovaklar o`zaro qo`shilish hodisasi nima deyiladi?
- 1.25. Nima uchun barcha tashqi sharoitlar bir xil bo`lganda elektron - kovak justlari hosil bo`lishi uzuksiz davom etsa - da, yarimo`tkazgichdagi zarynd tashuvchi erkin elektronlar soni o`zgarmaydi?
- 1.26. Qanday usul bilan yarimo`tkazgichlarda elektron va kovakli o`tkazuvchanlik oshiriladi? 2. Fosfor, mishyak, surma, galliy, bor, indiy aralashmalaridan qaysi biri qo`shilganda germaniyili yarimo`tkazgichning elektron o`tkazuvchanligi va kovakli o`tkazuvchanligi ortadi?
- 1.27. Aralashmali yarimo`tkazgichlarning qarshiligi temperatura o`zgarishi bilan qanday o`zgaradi?
- 1.28. Nima uchun erkin zaryad tashuvchilar p-n - o`tish sohasida tura olmaydi?
- 1.29. Nima uchun p-n - o`tishda to`g`ri tok kuchi teskari tok kuchidan katta bo`ladi?
- 1.30. Past temperaturada kremniy va germaniyining elektr o`tkazuvchanligi qanday o`zgaradi?
- 1.31. Termistorlar uchun tok kuchi bilan qarshilik qanday bog`lanishda bo`ladi?
- 1.32. Termistor va fotorezistorning o`zaro farqi nimadan iborat?
- 1.33. Yarimo`tkazgichli kristal qanday o`tkazuvchanlikka ega?
- 1.34. Tranzistorda emitter, baza va kollektor toklari o`zaro qanday ifoda orqali bog`langan?
- 1.35. Radiotexnikada yarimo`tkazgichli asboblardan foydalanishning elektron lampalardan afzalligi nimalardan iborat?
- 1.36. Nima uchun yarimo`tkazgichli ventilni o`zgaruvchan tok tarmog`iga yuk(nagruzka)siz ulash mumkin emas?
- 1.37. Nima uchun temperatura sezilarli o`zgarganda p-n- o`tishning to`g`rilash xususiyati keskin kamayadi? Germaniyili yarimo`tkazgich asboblardan qanday temperaturalarda foydalanish mumkin? Kremniyi asboblardan - chi?
- 1.38. Nima uchun tranzistor bazasining kengligi kichik bo`lishi kerak?
- 1.39. Nima uchun tranzistor emitteridagi aralashmalar konsentratsyasi bazadagiga nisbatan yuqori bo`ladi?
- 1.40. Tranzistor kristalida qanday sohalar bor?
- 1.41. Tranzistorning emitter - baza va baza - kollektor qismida kuchlanish bi day orttirilganda kollektor zanjii ida tok kuchi ham birday ortadimi?
- 1.42. Qanday energiya hisobiga tranzistordan kuchaytiligan signal olinadi?
- 1.43. Tarkibidagi indiy va mish`yak elementlari miqdori (mol hisobida) bir xil bo`lgan InAs birikmani (indiy arsenidi) to`rtinchchi guruh elementlari (Ge, Si) ning xususiy o`tkazuvchanligi kabi tipdagi o`tkazuvchanligi ortganda o`tkazuvchanlik qanday tipda bo`ladi? Mishyak konsentratsyasi ortganda - chi?

1.44. Kerakli tipdag'i aralashmali o'tkazuvchanlik olish uchun yarim-o'tkazgichlar texnikasida ko'pincha fosfor, galliy, mishyak, indiy, surma ishlataladi. Elektronli o'tkazuvchanlik olish uchun bu elementlardan qaysi birini aralashma sifatida germaniyga qo'shish mumkin?

1.45. Nima uchun jajji yarimo'tkazgichli radiopriyomnikni tranzistor deyish noto'g'ri?

## 2 - qiyinlik darajadagi masalalar

2.1. Fotoqarshilikning qorong'ilikdagi qarshiligi  $1,0 \cdot 10^{10} \Omega$ , yoritilgandagisi esa  $2 \cdot 10^4 \Omega$ . Fotoqarshilikka 50 V kuchlanish berilgan bo'lsa, yoritilganda fototok qancha bo'ladi.

2.2. Kuchlanishi 16 V bo'lganda qorong'ilikda fotoqarshilikda 1,6 mA, ma'lum darajada yoritilganda esa 2,0 mA tok bo'lgan. Fotoqarshilikning yoritilmagan vaqtligi va shu berilgan yoritilganlikdagi volt - amper xarakteristikasini birligina o'qlarda chizing. Kuchlanish 5 V; 10 V bo'lganda fototok kattaligini grafikdan ko'rsating.

2.3. Fotoelementni sport yugurish yo'li finishida ishlatish sxemasini tuzing.


2.4. I-rasmida germaniyli diod DG-S - 27 orqali o'tuvchi tokning kuchlanishga bog'liq bo'lish grafigi berilgan. Xarakteristikaning qaysi qismi tok bilan kuchlanish orasidagi bog'lanishni aks ettiradi? Qaysi qismi berk yo'naliishdagi bog'lanishni ko'rsatadi? Kuchlanish 0,4 V va teskari kuchlanish 400 V bo'lganda diodning ichki qarshiligini toping.

2.5. Yerning sun'iy yo'ldoshlarida yarimo'tkazgichli quyosh elektr batareyalari o'rnatiladi. Yo'ldoshning Yer atrofida bir marta aylanishi davomida shunday batareyaning  $1\text{m}^2$  sirtidan olinadigan elektr energiya o'rtacha miqdori aniqlansin. Quyosh energiyasi oqimining zichligi  $1 \frac{\text{kW}}{\text{m}^2}$ , issiqlik nurlanishi oqimning 60% ini tashkil etadi. Batareyaning F.I.K. 10%, yo'ldoshning aylanish davri 102 min. Yo'ldosh Yer atrofida aylanish vaqtining  $\frac{2}{3}$  qismi davomida quyosh nuri bilan yoritiladi.


2.6. Nega temperatura ortishi bilan elektrolitlar va yarimo'tkazgichlarning qarshiligi kamayadi?

2.7. Kremniyni mutloq noj temperaturagacha qizdirilganda, u o'ta o'tkazuvchan bo'ladi, yo'qmi?

2.8. Yarimo'tkazgichni qizdirish natijasida uning qarshiligi 20% kamaydi. Tok kuchi necha foizga o'zgaradi?



- 2.9.  $20^{\circ}\text{C}$  temperaturada germaniydagи elektronlar konsentratsyasi  $1,0 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ . Atomlarning umumiy miqdori  $5 \cdot 10^{22} \text{ sm}^{-3}$  bo`lsa ularning qancha miqdori ionlashgan? O`rta hisobda har bir atomdan bittadan valent elektroni ajraladi.
- 2.10. Ionlashgan atomlari  $2 \cdot 10^{-6}\%$  ni tashkil qilgan germaniyda o`tkazuvchan elektronlar konsentratsyasi qanchaga teng? O`rta hisobda har bir atomdan bittadan valent elektroni ajraladi.
- 2.11. Germaniy monokristaliga fosfor kiritildi; uning miqdori massa bo'yicha  $10^{-4}\%$  ni tashkil qiladi. Bu aralashma natijasida zaryad tashuvchilar miqdori qanchaga o'zgaradi? Barcha fosfor atomlari ionlashmoqda deb hisoblansin.
- 2.12. Kremniyda kovaklar konsentratsyasi  $5,0 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$  ga teng bo'lishi uchun unga qancha miqdorda (massa % hisobida) alyuminiy qo'shish kerak? Alyuminiyning har bir atomi kovaklashishda ishtirok etadi.
- 2.13. To`rt valentli germaniy quyidagi moddalar kiritildi: 1) Besh valentli mishyak 2) Uch valentli indiy. Germaniyda asosiy tok tashuvchilar har bir hol uchun qanday bo'ladi: elektronlarmi yoki kovaklarmi?
- 2.14. Germaniyga quyidagi moddalar kiritilganda u qanday o`tkazuvchanlikka ega bo'ladi: fosfor, rux, kalif?
- 2.15. Agar germaniy yoki kremniyga qalay eritilib kiritilsa, p-n o'tish hosil bo'ladi?
- 2.16. Xususiy o`tkazuvchanliklarda elektronlar va ko-vaklar konsentratsyasi bir xil bo'lishiga qaramasdan elektron tok kovak tokidan katta bo'ladi. Buni tushuntiring.
- 2.17. 1) 2-rasmda germaniyli diodning (DG-S-27) volt-amper xarakteristikasi berilgan.





Xarakteristikaning qaysi qismida tokning kuchlanishiga bog'lanishi to`g'ri yo`nalishda, qaysinisida teskari yo`nalishda?

2) Nima uchun yarimo`tkazgichli diodning volt-amper xarakteristikasida to`g'ri va teskari toklarni bir xil mashtabda chizish qulay emas?

2.18. 3-rasmda termistorning temperaturaviy xarakteristikasi ko`rsatilgan. Kuchlanish tushuvi 18 V bo`lganda termistordagi tok kuchini aniqlash uchun milliampermetr o'lchash chegaralari qanday bo'lishi kerak? Qanday temperaturalarda milliampermetr 10mA, 5 mA, 2mA lajni ko`rsatadi?

2.19. Nima uchun metallarning qarshiligi nurlanish ta'sirida o'zgarmaydi?

2.20. 4-rasmda yoritilgan (I-grafik) va yoritilmagan (II-grafik) fotoqarshilikning volt - amper xarakteristikasi keltirilgan. Qaysi holda fotoqarshilikning qarshiligi kelta? Shu berilgan fotoqarshilik uchun Om



qonuni o`rinlimi?

2.21. Quyoshdan Yerga 1 minutda yetib keladigan energiya miqdori  $\approx 7500 \text{ J/m}^2$  ga teng. Quvvati 100 W bo`lgan quyosh yarimo`tkazgichli elektr batareyasining yuzasi qanday bo`lishi kerak? Batareyaning F.I.K. i 20 %.

2.22. Ketma - ket ulangan termistor va qarshiligi  $1\text{k}\Omega$  bo`lgan reostatdan iborat zanjirning uchlariga 20 V kuchlanish berildi. Uy temperaturasida zanjirdagi tok kuchi 5 mA bo`lib, agar termistor qaynoq suvgaga tushirilganda tok kuchi  $10 \text{ mA}$  bo`lsa, bunda termistorning qarshiligi necha marta o`zgargan bo`ladi?

2.23. Qorong`ida  $25 \text{ k}\Omega$  qarshilikka ega bo`lgan fotorezistor  $25 \text{ k}\Omega$  li rezistorga ketma - ket ulandi. Fotorezistor yoritilganda zanjirdagi tok kuchi 1,8 marta ortadi (o`sha kuchlanishda). Fotorezistorning qarshiligi necha marta kamaygan?

2.24. Agar selenli to`g`rilagichning bitta shaybasi 9 V kuchlanishga mo`ljallangan bo`lsa, 36 V kuchlanishni to`g`rilash uchun nechta shayba va ularni qanday ulash kerak?

2.25. Tajribalarda aniqlangan Xoll koefitsiyentining qiymatlari a)  $R = 2 \cdot 10^3 \frac{\text{sm}^3}{\text{C}}$ ; b)  $R = 3,1 \cdot 10^2 \frac{\text{sm}^3}{\text{C}}$ ; c)  $R = 6,2 \cdot 10^3 \frac{\text{sm}^3}{\text{C}}$  bo`lgan hollar uchun kristaldagi zaryad tashuvchilarining konsentratsyysini aniqlang.

2.26. Germaniy va kremniydagagi elektron va kovaklarning harakatchanligining qiymatlarini bilgan holda  $T = 77$  va 300 K dagi diffuziya koefitsiyentlari  $D_n$  ni hisoblang.

2.27.  $T = 300 \text{ K}$  da germaniydagagi elektronlarning o`rtacha yashash vaqtini  $2 \cdot 10^{-4} \text{ s}$  ga teng. Avvalgi masalada aniqlangan  $D_n$  ning qiymatini bilgan holda diffuzion uzunlikni aniqlang.

2.28. Elektr o`tkazuvchanlikning to`la toki kovaklı elektr o`tkazuvchanliklik tokiga nisbatini quyidagi hollar uchun aniqlang: a) toza germaniy uchun; b) solishtirma qarshiligi  $0,05 \Omega \cdot \text{m}$  bo`lgan; v) p- turdagagi germaniy uchun. Xona temperaturasida toza germaniyda zaryad tashuvchilar konsentratsyysi

$n = 2 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ , elektronlar harakatchanligi  $\mu_n = 3900 \frac{\text{sm}^2}{V \cdot \text{s}}$ , kovaklarniki  $\mu_p = 1900 \frac{\text{sm}^2}{V \cdot \text{s}}$  ga teng.

2.29. Germaniy monokristalida elektronlarning harakatchanligi  $\mu_n = 3900 \frac{\text{sm}^2}{V \cdot \text{s}}$ , kovaklarniki  $\mu_p = 1900 \frac{\text{sm}^2}{V \cdot \text{s}}$ . Xususiy konsentratsya  $n_i = 2,5 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$  ga teng deb, uning xususiy elektr o`tkazuvchanligi  $\sigma_i$ , minimal o`tkazuvchanligi  $\sigma_{\min}$  va maksimal solishtirma qarshiligi topilsin.

2.30. Induksiyasi  $B_z = 1000 \text{ Gs}$  bo`lgan maydonga o`lchamlari:  $\ell_x = 5 \text{ sm}$ ,  $\ell_y = 0,5 \text{ sm}$   $\ell_z = 0,5 \text{ sm}$  bo`lgan namuna joylashtirilgan. Namunaga  $U_x = 3,5 \text{ mV}$  kuchlanish qo`yilganda undan  $I = 25 \text{ mA}$  tok o`tgan. O`lchangan Xoll

kuchlanishi  $12 \text{ mKV}$  bo'lsa, elektr o'tkazuvchanlik va zaryad tashuvchilarning konsentratsyasi topilsin.

2.31. Kengligi  $l = 1 \text{ sm}$  va uzunligi  $L = 10 \text{ sm}$  bo'lgan ingichka plastinka ko'rinishidagi yarimo'tkazgich  $B = 0,2 \text{ Tl}$  induksiyali bir jinsli magnit maydonga joylashtirilgan. Magnit induksiyasi vektori plastinka tekisligiga tik. Plastinka uchlariga ( $L$  yo'nalishi bo'yicha)  $U = 300 \text{ V}$  doimiy kuchlanish qo'yilgan. Agar Xoll doimiysi  $R_n = 0,1 \text{ m}^3/\text{C}$ , solishtirma qarshiligi  $\rho = 0,5 \Omega \cdot \text{m}$  bo'lsa, plastinkani yon tomonlaridagi Xoll potensiallar farqi  $U_n$  aniqlansin.

2.32. Kengligi  $l = 2 \text{ sm}$  bo'lgan yupqa kreminiy plastinka induksiya chiziqlariga tik qilib, bir jinsli magnit maydoniga ( $B = 0,5 \text{ Tl}$ ) joylashtirilgan. Plastinka bo'ylab yo'nalgan  $j = 2 \text{ mKA/mm}^2$  tok zichligida Xoll potensiallar farqi  $U_n = 2,8 \text{ V}$  bo'lib chiqdi. Zaryad tashuvchilarning konsentratsyasi n aniqlansin.

### 3 - qiyinlik darajadagi masalalar

3.1. Kub panjara uchun (211), (022), (002), (200) kristalografik tekisliklarni grafik ko'rinishida tasvirlang.

3.2. Qirrasi s bo'lgan kub panjarada ikkita qo'shni ( $hkl$ ) tekisliklar orasidagi masofani aniqlang.

3.3. n - chi energetik zona kengligi uchun umumiy ifodani keltirib chiqaring.

Buning uchun  $E_n = A_n + (-1)^n B_n \cos\phi$ ,  $A_n = \frac{\hbar^2 n^2 \pi^2}{2ma^2} \left(1 - \frac{2}{p}\right)$  va  $B_n = \frac{\hbar^2 n^2 \pi^2}{2ma^2} - \frac{2}{p}$

ifodalardan foydalaning.

3.4. n va  $(n+1)$  - chi taqilangan qo'shni zonalar orasida joylashgan taqilangan zona kengligi uchun umumiy ifodani keltirib chiqaring. Buning uchun avvalgi masaladagi  $E_n$ ,  $A_n$  va  $B_n$  larning ifodalaridan foydalaning.

3.5.  $\tau(\varepsilon^*) = \tau_0(\tau)\varepsilon^{\left(\frac{1}{2}\right)}$  ifodadan foydalanib,  $\tau = \frac{\tau_0 \varepsilon^{\frac{3}{2}}}{\varepsilon^{\frac{3}{2}} + a^2}$  va  $\tau = \frac{\tau_{0L} \varepsilon^{\frac{3}{2}}}{\varepsilon^{\frac{3}{2}} + a^2}$

ifodalarni mustaqil keltirib chiqaring.

3.6.  $\tau(\varepsilon^*) = \tau_0 \varepsilon^{\left(\frac{1}{2}\right)}$  ifoda yordamida bir vaqtida ro'y beruvchi ikki sochilish mexanizmi uchun formulani keltirib chiqaring: a) akustik fononlarda va neytral aralushmalarda sochilish

b) Debay temperaturasidan kichik hol uchun aralashma ionlari va optik fononlarda sochilish.

$$3.7. \text{ Umumiy ifodalar } \sigma = \frac{8\pi\ell^2}{3m^*(2\pi\hbar)} (2m^*kT)^{\frac{1}{2}} \tau_{OL} \cdot F_1(\mu^*) \quad \text{va} \quad u_{OL} = \frac{2(e)}{3m^*} \tau_{OL} \cdot \frac{F_0(\mu^*)}{F_2(\mu^*)}$$

dan kuchli aynish bo'lgan hol uchun akustik sochilish formulasini keltirib chiqaring.

$$3.8. \sigma_i = \frac{8\pi\ell^2}{3m^*(2\pi\hbar)} (2m^*kT)^{\frac{1}{2}} \tau_{oi} \cdot F_2(\mu^*) \quad \text{va} \quad u_{oi} = \frac{2(e)}{m^*} \tau_{oi} \cdot \frac{F_1(\mu^*)}{F_2(\mu^*)} \quad \text{ifodalarda}$$

$\mu^* \gg 0$  deb hisoblab, aynigan hol uchun aralashmalardagi sochilish jarayoni uchun  $\sigma_i$  va  $u_{oi}$  larning ifodasini toping.

3.9. Kuchli aynigan bo'lgan holda, sochilish mexanizmining qanday bo'lishidan qat'iy nazar, Xoll - faktorning birga tengligini isbot qiling. Buning uchun Xoll - faktor uchun umumiy ifodalar  $A_L = \frac{3}{4} F_{Y_2}(\mu^*) \cdot \frac{F_{-Y_2}(\mu^*)}{F_2(\mu^*)}$  va  $A_s = \frac{3}{4} F_{Y_2}(\mu^*) \cdot \frac{F_{Y_2}(\mu^*)}{F_2(\mu^*)}$

dan foydalaning.

3.10. Elektronlar konsentratsyasi  $10^{12}$ ,  $10^{17}$  va  $10^{19} \text{ sm}^{-3}$  bo'lgan n-turdag'i germaniy uchun termo EYuK ining fonon tashkil etuvchisini hisoblang.

3.11. Tarkibida fosfor kirishmalarining konsentratsyalari  $10^{18}$ ,  $10^{19}$  va  $10^{20} \text{ sm}^{-3}$  bo'lgan kremniyidagi kremniy ionlarida sochilish natijasida bosil bo'ladigan termo EYuK ini hisoblang.

3.12. Termo EYuK ni o'lchash asosida elektr o'tkazuvchanlikning turini aniqlash imkoniyatlarini tahlil qiling.

3.13. Taqiqlangan bilvosita o'tishlar uchun  $\alpha(\hbar\omega)$  ning ifodasini keltirib chiqaring. Buning uchun  $f = f_0 + \frac{e\hbar}{m^*} \tau(k) k \frac{\partial F_0}{\partial E} \varepsilon_o e^{i\omega t}$ ,  $\sigma = \sigma_1 + i\sigma_2$  va

$$\alpha = \sum_i \alpha_i(\omega) = \sum_i \sigma_i(\omega) N_i \quad \text{ifodalardan foydalaning.}$$

$$3.14. \chi = n^2 - k^2 = \chi_0 - \frac{4\pi^2 Ne^2}{m^*} \cdot \frac{\tau^2}{1 + \omega^2 \tau^2} \quad \text{va} \quad \chi = \chi_0 - \frac{Ne^2 \lambda_{min}^2}{m^* c^2} \quad \text{ifodalardan}$$

$$\text{foydalanib } \left( \frac{1 + \sqrt{R}}{1 - \sqrt{R}} \right)^2 = \chi_0 - \frac{Ne^2 \lambda^2}{m^* c^2} \text{ ni o'rinali ekanligini isbot qiling.}$$

3.15. Xona temperaturasida germaniyda nurlanish zonalararo rekombinasiyada zaryad tashuvchilarining yashash vaqtisi  $8 \cdot 10^{-2} \text{ s}$  ga teng. Zaryad tashuvchilarining konsentratsyasi  $n = 2 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ . Nurlanishli rekombinasiya koefitsiyentini aniqlang. O'lchashdagi injeksiyani kichik deb hisoblang.

3.16. n - turdag'i aralashmali (kirishmali) yarimo'tkazgichdagi elektronlarning muvozanatdag'i konsentratsyasi  $5 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$  ga teng. Kichik injeksiyada nurlanishli rekombinasiya sharoitida elektronning yashash vaqtisi  $10^{-2} \text{ s}$  ga teng. Elektronlarning konsentratsyasi  $2 \cdot 10^{17}$ ,  $5 \cdot 10^{17}$  va  $7 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$  bo'lgan hollar uchun elektronning yashash vaqtini baholang.

- 3.17. Xususiy germaniyda nurlanishli yashash vaqtini temperaturaga bog'liqligini tahlil qiling. Injeksiya juda kichik va koefitsiyent y. temperaturaga bog'liq emas deb hisoblang.
- 3.18. Kovaklarning p-turdagi germaniyda nurlanishli yashash vaqtini temperaturaga bog'liqligini tahlil qiling. Galliy kirishmalarining konsentratsyusi  $2 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$ . Tahlilni  $4K \leq T \leq 77K$  temperatura intervali uchun qiling.
- 3.19. Kremniydagagi fosfor kirishmaning konsentratsyasi  $4 \cdot 10^{18}$  dan  $8 \cdot 10^{19} \text{ sm}^{-3}$  ga ortganda, to'qnashish rekombinasiysi bo'lganida, zaryad tashuvchilarining yashash vaqtini necha marta va qanday o'zgaradi?
- 3.20. Kub panjaralari kristalning birinchi Brullyuen zonasida bir atomga 2 ta elektron to'g'ri kelishini ko'rsating.
- 3.21. Atomlari orasidagi masofalar  $a$  va  $\epsilon = 3a$  bo'lgan ikki o'lchamli sodda to'g'ri burchakli panjara uchun birinchi 4 ta Brullyuen zonasini grafigini chizing.
- 3.22. Geksagonal zinch joylashgan (GZJ) monoatomli panjara strukturasi uchun Brullyuen zonasasi olti burchakli prizma ko'rinishda bo'ladi. Bu prizmaning o'lchamlarini aniqlang. Panjara doimiysi  $a$  ga teng.
- 3.23. Qirrasi  $2 \cdot 10^{-8} \text{ sm}$  bo'lgan oddiy kub panjara uchun deyarli erkin elektronlar yaqinlashishda  $E(\tilde{K}_{100})$  ni hisoblang. Bu yerda  $\tilde{K}_{100}$  - Brullyuen zonasasi markazi bilan (100) qirrali zonani tutashtiruvchi vektor.
- 3.24. InSe da taqiqlangan zona kengligi  $\Delta E = 0,18 \text{ eV}$ ,  $\epsilon = 17$  va  $m^* = 0,014 \text{ m. a}$ ) a) Donorlar ionizasiya energiyasini; b) asosiy holatdagi orbita radiusini; s) qanday minimal donorlar konsentratsyasidan boshlab, orbitalarning qo'shni aralashma orbitalari bilan qisman kesishi bilan bog'liq effektlar namoyon bo'ladi?
- 3.25. Qanday temperatura intervalida  $n$ -Ge ning elektronlar konsentratsyusini  $n = 10^{15} \text{ sm}^{-3}$  qiymatda stabillash mumkin?  $n = 10^{16} \text{ sm}^{-3}$  dachi? Bu temperatura intervali kremniy uchun qanday bo'ladi? Aralashmalarning energiya aktivasiyasi bit xil va  $0,01 \text{ eV}$  ga teng deb hisoblang.
- 3.26. Eynshteyn nisbatini aynigan va aynimagan yarimo'tkazgichlar uchun keltirib chiqaring.
- 3.27. Germaniy va kremniy xususiy yarimo'tkazgichlarda elektron va kovaklarning diffuziya koefitsiyentlarini jadvalini tuzing.
- 3.28. Elektron va kovaklar uchun bipolyar (biquid) diffuziya koefitsiyenti formulasini keltirib chiqaring.
- 3.29. n-turdagi kremniy va germaniy yuzalarida kovaklarni qandaydir ortiqcha koensentratsyasi doimiy saqlanadi. Namuna qalinligi bo'yicha ortiqcha yengil va oqit kovaklar taqsimoti qanday? (masalani bir o'lchamli deb hisoblang).
- 3.30. Erkin yugurish yo'lini vaqtga bog'liqligi yaqinlashuvida erkin zarynd tashuvchilarining o'rtacha erkin yugurish yo'li vaqtini aniqlang. Zarynd tashuvchilarining harakatchanligi 0,4 SI birligiga, massasi esa erkin elektronning massasiga teng deb hisoblang.
- 3.31. Yarimo'tkazgichlarning xususiy elektr o'tkazuvchanligi  $\sigma_e = en_i(\mu_n + \mu_p)$  ko'rinishida yoziladi. Minimal elektr

o'tkazuvchanlik  $\sigma_{min} = 2en_i(\mu_n \cdot \mu_p)^{\frac{1}{2}}$  ko'rinishda ifodalanishini isbotlang. Bu

holda elektronlar konsentratsyasi  $n_e = n_i \left( \frac{\mu_p}{\mu_n} \right)^{\frac{1}{2}}$  va kovaklar konsentratsyasi

$$n_p = n_i (\mu_n \cdot \mu_p)^{\frac{1}{2}}.$$

3.32. Yuzasi metall pardas bilan qoplangan germaniy namunasining yuzasidan qancha ichkariga kontakt maydonining kirishini aniqlang. Elektron konsentratsyasi  $n_0 = 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ , metall - germaniy kontaktida chiqish ishining farqi  $0,3 \text{ eV}$  va  $\varepsilon = 16$  (germaniyl uchun).

3.33. Metall - yarimo'tkazgich kontaktida yarimo'tkazgichdan metalga o'tayotgan elektronlar tokini toping. Yarimo'tkazgichda elektronlarning yuzachiligi  $n_e = 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ .

3.34. Denorlar konsentratsyasi  $N_D = 10^{16} \text{ sm}^{-3}$  bo'igan n-kremniy va akseptorlar konsentratsyasi  $N_A = 10^{17} \text{ sm}^{-3}$  bo'lgan p-germaniyl hosil qilgan p-n-o'tishdagidagi kontakt potensiallar farqini aniqlang. O'tishning geometriyasi to'g'rilanishi diffuzion nazariyasini qanoatlantiradi.  $T = 300 \text{ K}$  deb hisoblang.

3.35. Germaniyli yassi diodning p-n o'tish sohasini yuzi  $1 \text{ mm}^2$  bo'lib, p-sohasi uchun  $\rho_p = 0,1 \Omega \cdot \text{sm}$  va n-sohasi uchun  $\rho_n = 2 \Omega \cdot \text{sm}$ . Asosiy bo'ltagan zaryad tashuvchilarining yashash vaqtini p-sohadagi  $\tau_p = 100 \text{ mks}$  va n-sohadagi  $\tau_n = 100 \text{ mks}$ . Bu diod uchun to'yinish teskari tokini toping.

3.36. Ko'ndalang kesim yuzasi  $1 \text{ mm}^2$  bo'lgan germaniyli p-n o'tishli dioddagi to'yinish tokining kovak tashkil qiluvchisini aniqlang. Kovaklarning n-sohadagi diffuziya uzunligi  $0,005 \text{ sm}$ , solishirma elektr o'tkazuvchanligi  $\sigma = 1000 \frac{\text{Sim}}{\text{m}}$  va  $T = 300 \text{ K}$  deb oling.

3.37. Elektron yarimo'tkazgich yuzasiga tik  $E = 5 \cdot 10^3 \frac{\text{V}}{\text{sm}}$  kuchlanishli doimiy elektr maydoni qo'yilgan va unda yuza o'tkazuvchanligi  $10^6 \Omega^{-1}$  ga teng bo'lganda yuza holatidagi zaryad aniqlansin. Yarimo'tkazgichning barcha joyida  $\frac{e\varphi}{kT} \ll 1$  shart bajariladi va  $n = 5 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ ,  $\varepsilon = 16$ ,  $\mu_{eff} = \mu_n = 3800 \frac{\text{sm}^2}{\text{V} \cdot \text{s}}$ .

3.38. Kovakli yarimo'tkazgich sirt potensiali  $|\phi_s| = 0,25 \text{ eV}$  bo'lsa, uning manfiy sirt zaryad zichligini aniqlang. Akseptorlar yarimo'tkazgich ichida (sirtidan ekranlashtirish uzunligidan kattaroq masofalarda) to'la ionlashgan va  $n_p = 3 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ ,  $\varepsilon = 16$ ,  $T = 300 \text{ K}$  deb hisoblang.

3.39. Juda yupqa uzun plastinka (uzunligi  $\ell$  va eni  $s$ , qalinligi  $a = 0,25 \text{ mm}$ ),  $\ell, s \gg a$  uchun yuza rekombinasiya tezligi S ni aniqlang. Plastinkadagi muvozaganida bo'limgan zaryad tashuvchilarining effektiv yashash vaqtini  $\tau = 125 \text{ mks}$ , hajmiy yashash vaqtini  $\tau_p = 250 \text{ mks}$ ,  $\frac{S \cdot a}{D_p} \ll 1$  shart qo'llanilsin.

3.40. Aralashmalarning ionlarida sochilish asosiy bo'lgan bol uchun  $\lambda$  va  $\mu$  orasidagi munosabatni keltirib chiqaring.

3.41. Germaniy  $T = 300 K$  da elektronlarning harakatchanligi  $\mu_e = 1$  qonuniyatga bo'y sunishi (eksperimental) aniqlangan. Shu temperaturalardan  $p-n-p$ -tranzistorning baza orqali diffuziya natijasida tok zichligi aniqlansin. Emitterdag'i ( $x=0$ ) elektronlar konsentratsyasi  $10^{17} \text{ sm}^{-3}$  va kollektordagisi ( $x=10^{-3} \text{ sm}$ ) esa nolga teng.

3.42.  $T = 300 K$  da o'tkazuvchanlik zonasida o'rtacha tezlik bilan harakatlanayotgan elektronlarning energiyasi, kvaziimpulsni, to'lqin vektori va to'lqin uzunligini aniqlang. Bunda  $m_e = 0,37 m$  deb hisoblang. Shu kattaliklarni to'lqin uzunligi elektronnikidan ikki marta katta bo'lgan.  $6500 \frac{\text{m}}{\text{s}}$  tezlik bilan

harakatlanayotgan  $L_A$  bo'y lanma akustik fononlar uchun aniqlang. Energiya va impuls saqlanish qonunlaridan bunday fonon elektronni qanday burchakka sochishini toping. Shu jumladan, elektron energiyasining o'zgarishini toping.

3.43. Sochilish germaniyda ionlashgan akseptor kirishmada ro'y berayotgan bo'lsa, markaziy to'qnashayotgan elektron sochuvchi markazga qanday minimal masofaga yaqinlashadi.

3.44. Kremniydag'i aralashmaning ionlashgan atomlarida sochilayotgan elektronlarining effektiv sochilish kesimini aniqlang. Aralashma konsentratsyasi  $n_d = 10^{15} \text{ sm}^{-3}$  va uning sathi o'tkazuvchanlik zonasini tubidan  $\Delta E_d = 0,01 eV$  masofa joylashgan.

3.45. Elektronlarning birlik uzunlikdag'i to'qnashuvlari soni effektiv kesim yuzasiga va erkin yugurish yo'li  $T^{-1}$  ga proporsional ekanligini ko'rsating. Yarimo'tkazgichlarda erkin elektronlarning o'rtacha kinetik energiyasi  $\frac{3}{2} k_B T$

ga teng deb,  $\mu \approx T^{-\frac{3}{2}}$  ekanligini hisobga oling.

3.46. Sochilish aralashma atomlarida va panjara atemlarning tebranishlarida bir xil ahamiyatga molik bo'lgan hol uchun Xoll koefitsiyentini hisoblash metodikasini keltiring.

3.47. Zaryad tashuvchilarining ikki xil turi bo'lgan holda Xoll koefitsiyenti uchun  $R = \frac{1}{e} \frac{p\mu_p^2 - n\mu_n^2}{(p\mu_p + n\mu_n)^2}$  o'rini bo'lishini isbot qiling va ikki:  $n \gg p$ ,  $n \ll p$  hollarri ko'ring.

3.48.  $T = 30 K$  da aktivasiya energiyasi  $0,05 eV$  bo'lgan bor bilan legirlangan kremniyda kovaklarning Xoll harakatchanligi  $50 \frac{\text{sm}^2}{\text{V} \cdot \text{s}}$  ga teng. Shu temperaturada sochilish aralashmalar ionlarida bo'ldi deb hisoblab,  $T = 200 K$  da kovaklar harakatchanligi  $250 \frac{\text{sm}^2}{\text{V} \cdot \text{s}}$  ga teng bo'lgandu sochilish qanday bo'lishi aniqlansin.

3.49. Qandaydir yarimo'tkazgich uchun  $\Delta E = 0,16 \text{ eV}$ ,  $T = 78 \text{ K}$  va  $120 \text{ K}$  uchun

Xoll koeffitsiyenti  $R = +160 \frac{\text{sm}^{-3}}{\text{K}}$ .  $T = 78 \text{ K}$  da solishtirma qarshilik  $0,04 \Omega \cdot \text{sm}$ ,  $T = 120 \text{ K}$  da esa  $0,076 \Omega \cdot \text{sm}$ , termo EYuK koeffitsiyenti  $T = 120 \text{ K}$  da  $520 \frac{\text{mkV}}{\text{K}}$ ,

$T = 254 \text{ K}$  da kuchsiz maydon Xoll koeffitsiyenti nolga aylanadi. Zaryad tashuvchilarning effektiv massasi  $m^* = 0,07m$ . Shu namuna uchun  $T = 254 \text{ K}$  da kuchli magnit maydoni uchun kovaklarning effektiv massasi, akseptor aralashma konsentratsyasi (kompensasiya yo'q deb), elektron va kovaklarning harakatchanligi, qarshiliqi, termo EYuK va Xoll koeffitsiyenti aniqlansin.

3.50. Dreyf tezligini kuchli elektr maydonida o'zgarishi  $\Omega$  qonunini buzilishiga olib keladi. Maydonning qanday qiymatida germaniydagagi tezlikning nisbiy o'zgarishi  $\frac{\Delta \vartheta}{\vartheta} = 13\%$  ga teng bo'ladi. Elektronlarning harakatchanligi

$$\mu_n = 3900 \frac{\text{sm}^2}{\text{V} \cdot \text{s}}$$

3.51. Agar aktivlanish energiyasi  $\Delta E_0 = 0,1 \text{ eV}$  bolsa, xususiy elektr o'tkazuvchanlikli yarimo'tkazgichdagi Fermi sathi  $E_F$  aniqlansin. Elektronlar kinetik energiyasini hisoblashning nolinchi sathi sisatida o'tkazish zonasini eng pastki sathi qabul qilinsin.

3.52. Xususiy elektr o'tkazuvchanlikli (germaniyl) muayyan temperaturada  $\rho = 0,48 \Omega \cdot \text{m}$  solishtirma qarshilikka ega bo'ladi. Agar elektronning va kovaklarning harakatchanliklari  $b_s$  va  $b_p$  lar mos ravishda  $0,36$  va  $0,16 \frac{\text{m}^2}{\text{V}_Z}$  ga teng bo'lsa, zaryad tashuvchilarning konsentratsyasi n aniqlansin.

3.53. Aralashmali kremlinyning solishtirma o'tkazuvchanligi  $\sigma = 112 \frac{\text{sm}}{\text{m}}$ . Agar Xoll doimisi  $R_s = 3,66 \cdot 10^{-4} \text{ m}^3/\text{C}$  bolsa, kovaklarning harakatchanligi  $\mu_p$  va ularning konsentratsyasi  $n_p$  aniqlansin. Yarimo'tkazgich faqat kovakli o'tkazuvchaniikka ega deb qabul qilinsin.

3.54. Germaniyda atomlarning bir qismi surma atomlari bilan almashtirilgan. Kiritilgan atomning qo'shimcha elektronini Bor modeli bo'yicha qarab, uning bog'lanish energiyasi  $E$  va orbitasining radiusi  $r$  baholansin. Germaniyning dielektrik singdiruvchanligi  $\epsilon = 16$ .

3.55. Temperaturasi  $400 \text{ K}$  bo'lgan xususiy yarimo'tkazgichda elektronlar zichligi  $n = 1,38 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$ . Elektron va kovaklarning effektiv massalari ko'paytmasini toping. Taqiqlangan zona kengligi  $E_g = 0,785 - 10^{-4} T(\text{eV})$  qenuniyat bo'yicha o'zgaradi.

3.56. Energiyasi  $E(k) = E_0 + \frac{(hk)^2}{2m}$  ifoda bilan aniqlangan bir o'lchovli, aynimagan elektron gazi uchun holatlar zichligi  $g(E)$  topilsin.

3.57. Bor (B) atomi  $N_a = 10^{17} \text{ sm}^{-3}$  miqdorda kiritilgan kremniyidagi kovaklar zichligi topilsin.  $T = 300 K$ ,  $m' = 0.59 m_0$ ,  $\mu_p = 100 \text{ sm}^2 V s^{-1}$  va  $g_0 = 1$ . Bor atomlari uchun  $E_F = +0,045 \text{ eV}$ .

3.58. Yarimo'tkazgichdagagi elektronlar zichligi  $T = 400 K$  da  $n = 1,3 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$ ,  $T = 350 K$  da  $n = 6,2 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$  bo'lsa, taqiqlangan zona kengligi  $E_g$  ni aniqlang  $E_g$  temperaturaga chiziqli bog'langan deb hisoblang.

3.59. Toza germaniyadagi elektronlari harakatchanligi  $T = 300 K$  da  $\mu_n = 3800 \text{ sm}^2 V^{-1} s^{-1}$ ,  $m'_n = 0.55 m_0$  va  $\mu = aT^{\frac{1}{2}}$  bo'lsa, germaniyining  $T = 30 K$  dagi solishtirma qarshiligini toping.  $E_g = 0,785 - 4 \cdot 10^{-4} T$  qonuniyat bo'yicha o'zgaradi,  $\frac{\mu_n}{\mu_p} = 2,1$  va  $a$  doimiy kattalik deb olinsin.

## 4 -qiyinlik darajadagi masalalar

### 1. Yarimo'tkazgichlardagi elektronlar va kovaklar statistikasi.

Valent zonadagi kovaklar kotsentrasiyasi - p va o'tkazuvchanlik zonasidagi elektronlar konsentratsyasi - n mos ravishda quyidagi ifodalar bilan aniqlanadi:

$$n = \frac{2}{(2\pi)^3} \int dk f_n(E_n(k)), \quad (1.1a)$$

$$p = \frac{2}{(2\pi)^3} \int dk f_p(E_p(k)) \quad (1.1b)$$

Bu yerda elektronlar va kovaklarning energiyalar bo'yicha taqsimot funksiyalarini integrallash Briyullen zonasidagi bo'yicha amalga oshiriladi. Ular quyidagi ifodalar yordamida aniqlanadi:

$$f_n(E) = \frac{1}{1 + e^{\beta(E-E_F)}}, \quad f_p(E) = 1 - f_n(E) \quad (1.2)$$

Bu yerda  $k$  - kvazi to'lqin vektori,  $\beta = 1/kT$ ,  $E_F$  - Fermi sathi,  $E_n(k)$  ( $E_p(k)$ ) - elektron (kovak) lar dispersiya qonuniyati. Valent zona tepasida va o'tkazuvchanlik zona (soha) tubi yaqinrog'ida  $E_n(k)$  va  $E_p(k)$  funksiyalarning xususiyatlari (1.1a) (1.1b) formulalar yordamida aniqlanishi muhimdir. Agar o'tkazuvchanlik zonasidagi mos kelsa bu nuqta (kub kristal panjarada)  $k=0$  dugi nuql bo'lishi kerak. U holda aynimagan soha (zona) da

$$E_n(k) = E_F + \frac{\hbar^2 k^2}{2m_n}, \quad (1.3a); \quad \text{bu yerda } E_F \text{ va } m_n \text{-lar o'zarmas qiymatlar.}$$

Agar o'tkazuvchanlik zonasining tubiga Briyullen zonasidagi bir nechta nuqtalar mos kelsa,  $k^2(1,2,\dots)$  uchun (avvalgidek aynimagan zona uchun)

$$E_{n,a}(k) = E_F + \sum_{j=1,2,\dots} \frac{\hbar^2(k_j - k^2)}{2m_j}, \quad m_j > 0 \quad (1.3b)$$

$E_s$ - o'tkazuvchanglik zonasining tubiga to'g'ri keladi,  
 $m_s$  - elektronlarning effektiv massasi.

(1.3b) anizotrop holatda  $m$ , effektiv massa tenzori komponentlari

$m_x, m_y = \frac{1}{\hbar^2} \cdot \frac{\partial^2 E_s(k)}{\partial k_i \partial k_j}$  larni bosh koordinata o'qlariga keltirilgan qiymatini bildiradi.

Bosh koordinata o'qlar sistemasida quyidagilarga ega bo'lamiz.

$$m_{xx} = m_x, \quad m_{yy} = m_y, \quad m_{zz} = m_z, \quad (1.4)$$

$$m_{xy} = m_{yz} = \dots = 0$$

Xuddi shunga o'xshash ifodalar valent zonada elektronlar uchun ham yoziladi:

$$E_p(k) = E_s - \frac{\hbar^2 k^2}{2m_p} \quad (1.3v)$$

(1.3 v) izotron holat uchun va

$$E_{po}(k) = E_s - \sum_{i=x,y,z} \frac{\hbar^2 (k_i - k_i^*)^2}{2m_i} \quad (1.3g)$$

(1.3g) esa anizotron holat uchun. Bu  $E_s = E_s - E_s$  kattalik taqiqlangan zonaning kengligi deyiladi.

Aynigan (buzilgan) zonalar uchun (1.3a) va (1.3b) ifodalar mos kelmaydi, shuning uchun  $E(k)$  ifoda yetarlicha murakkabroq ko'rinishda yoziladi.

Masalan, agar  $k=0$  bo'lganda valent zonada 2 ta aynigan izotrop zonalar bo'lsa, zona chekkasiga yaqin joyda dispersiya qonuni quyidagi ko'rinishga keladi.

$$E_p(k) = E_s - \frac{\hbar^2}{2m_0} \left\{ A k^2 \pm \sqrt{B^2 k^4 + C^2 (k_x^2 k_y^2 + k_x^2 k_z^2 + k_y^2 k_z^2)} \right\}, \quad (1.3d)$$

ifodadagi + ishora "engil" - ishora esa "og'ir" kovaklarga tegishlidir,  $m_0$  - vakuumdagi erkin elektronning massasi.

Tor taqiqlangan zonali qator yarimo'tkazgichlarda ekstremum biroz uzoqlashganda ham zonani neparabolikligi yetarlicha ta'sir qiladi. Agar parabolik holatlar 2 ta valent va o'tkazuvchanlik zonalarini o'zaro ta'siri deb faraz qilsak, boshqa zonalar yetarlicha uzoqda joylashgan bo'lib, qaralayotgan zonalardagi dispersiya qonunini taxminan quyidagicha ko'rinishda yozamiz:

$$E(k) = E_s + \frac{\hbar^2 k^2}{2m_0} + \frac{1}{2} \left( \pm \sqrt{E_r^2 + \frac{8}{3} P^2 k^2} - E_s \right) \quad (1.3e)$$

Bu yerda + (belgisi) ishora o'tkazuvchanlik, - minus esa valent zonaga tegishiidir. Parametr  $P$ -zonalarini o'zaro ta'sirini bildiradi. (1.3e) dispersiya qonuni Keyn tomonidan kiritilgan:  $m(0) = \frac{3\hbar^2 E_s}{4P^2}$  ifoda zona chegarasi yaqinida effektiv massa qiymati,  $m(0) \ll m_0$  bo'lganda quyidagi ifodani yozamiz:

$$E(k) = E_S + \frac{1}{2} \left( \pm \sqrt{E_S^2 + \frac{2\hbar^2 k^2 E_d}{m(0)}} - E_S \right) \quad (1.3j)$$

Tor taqiqlangan zonalı bir qator yarimo'tkazgichlar uchun o'tkazuvchanlik zonesida yuqoridağı ifoda bilan xarakterlanuvchi dispersiya qonunini yetarlich bajariladi.

Oddiy parabolik zona (1.3a) uchun elektronlar konsentratsyasi quyidagi ifoda bilan topiladi:

$$n = N_S F_{\frac{1}{2}}(\eta), \quad \eta = \frac{E - E_S}{kT} \quad (1.5),$$

Bu yerda

$$N_S = \frac{1}{2} \left( \frac{m_e kT}{2\pi\hbar^2} \right)^{\frac{3}{2}} \quad (1.6)$$

O'tkazuvchanlik zonesida holatlar effektiv zichligi deyiladi,  $F_{\frac{1}{2}}(\eta)$  esa Fermi integralini bildiradi. Aynish kuzatilmaganda, (1.5) ifoda quyidagi ko'rinishga keladi:

$$n = N_S e^\eta \quad (1.7)$$

Murakkabroq  $E(k)$  bog'lanishlarda konsentratsya (1.5) va (1.6) ifodalar bilan beriladi, bu effektiv massa zichligining holati deyilib,  $m_n$  kattalik  $m_d$  ga almashtirib yoziladi. (1.3b) holat uchun

$$m_d = Q^{1/3} (m_e m_p m_n)^{1/3}, \quad (1.8)$$

Bu yerda Q-o'tkazuvchanlik zonesidagi ekvivalent minimumlar soni (4-inasalaga qarang).

Fermi sathini aniqlovchi asosiy munosabatlар vazifasini elektr neytrallik sharti bujaradi, ya'ni

$$p + \sum z_j N_j - n = 0 \quad (1.9)$$

Bu yerda  $z_j$  - elektron zaryad birligidagi j sirdagi zaryadni bildiradi (ishorasi hisobga olingan holda),  $N_j$  - j sortli aralashma konsentratsyasi.

Aralashmali atomlar energetik sathlarining to'ldirilish darajasi quyidagi ifodalar bilan aniqlanadi:

$$\frac{N_d^0}{N_d^+} = g_d e^{\frac{E_d - E_a}{kT}}, \quad \frac{N_d^-}{N_d^0} = g_d e^{\frac{E_d - E_s}{kT}}, \quad (1.10)$$

Bu erda  $N_d^0(N_d^0)$  va  $N_d^+(N_d^-)$ -lar neytral va zaryadlangan donor (akseptor) lar sonini bildiradi.

$g_d(g_a)$ -aynigan aralashmali sath faktori,  $E_d(E_a)$ - donor (akseptor) larning aralashmali sathlar energiyalari.

Ifodadagi  $E_d, E_a$ ,  $g_d$  va  $g_a$ -lar har birri alohida olingan holatda tujribu yordamida aniqlanadi. Oddiy ko'rinishda aralashma sathining aymalii elektronning epini bilan bog'liq bo'lgan holda aynish faktori 2 ga teng bo'ladi.

4.1. Aynimagan xususiy yarimo'tkazgichdagi Fermi sathining holati va temperaturaga bog'liqlik konsentratsyasi topilsin. Agar  $E_g = (0,785 - \xi T) eV$  bo'lganda, temperatura 200 dan 300 K gacha o'zgargandagi elektronlar konsentratsyasi qanday o'zgaradi?

4.2. Xususiy yarimo'tkazgichdagi elektronlar konsentratsyasi 400 K temperaturada  $1,38 \cdot 10^{15} sm^{-3}$  ga teng bo'lgan. Agar taqiqlangan zonaning kengligi  $E_g = (0.785 - 4 \cdot 10^{-4} T) eV$  qonun bo'yicha o'zgarishi aniq bo'lsa, elektron va kovaklar effektiv massalarining ko'paytmasi topilsin.

4.3. Tekshirilayotgan yarimo'tkazgichdagi, Xoll effekti bo'yicha olib borilgan o'lchashlar  $400^0$  K temperaturadagi elektronlar konsentratsyasi  $1,3 \cdot 10^{16} sm^{-3}$  ekanligi,  $350^0$  K temperaturada esa  $6,2 \cdot 10^{15} sm^{-3}$  ga tengligi aniqlanadi. Material taqiqlangan sohasining kengligi topilsin. Qaralyotgan material taqiqlangan sohasi temperaturaga bog'liq holda chiziqli qonun bo'yicha o'zgaradi.

4.4. Germaniy va kremniydagagi elektronlar holatlari zichligining effektiv massasini va Fermi sathining konsentratsyaga bog'liqligini aniqlang. Q'tkazuvchanlik zonasidagi dispersiya qonuni (1,3b) ifoda bilan aniqlanadi. Ma'lumki, k - fazoda doimiy energiya sirti aylanuvchi ellipsoidga to'g'ri keladi, u germaniyda  $Q=4$  ga teng, ko'ndalang massasi  $m_e = 0.082 m_0$ , bo'ylama massasi esa  $m_i = 1.64 m_0$ , kremniyda esa  $Q=6$ ,  $m_e = 0.19 m_0$ ,  $m_i = 0.98 m_0$ .

4.5. Valent zonadagi (1,3d) dispersiya qonunini qo'yidagicha yozish mumkin:


$$E(k) = E_g - \frac{\hbar^2 k^2}{2m_0} \left\{ A \pm B \left[ 1 + \delta \cdot 6 \left( \frac{k_x^2 k_y^2 + k_x^2 k_z^2 + k_y^2 k_z^2}{k^4} - \frac{1}{6} \right) \right]^{\frac{1}{2}} \right\},$$

bu yerda  $B'^2 = B^2 + \frac{1}{6} C^2$ ,  $\delta = \frac{C^2}{6B'^2}$ . figurali qavslar ichidagi ifodaning son qiymati  $\frac{1}{6}$  dan katta bo'la olmaydi.

$\delta$ -bo'yicha qatorga yoyishdan foydalaniib, germaniydagagi holatlari zichligining effektiv massalarini "engil" va "og'ir" kovaklar uchun baholansin (aniqlansin) ( $A = 13,1$ ;  $B = 8,3$ ;  $C = 12,5$ ). xuddi shu kabi effektiv massa zichlik holati butun valent zonasi uchun topilsin.

4.6. Avvalgi masala natijalaridan foydalaniib, germaniydagagi yengil kovaklar hamma kovaklarning qanday qismini tashkil etishi aniqlansin.

4.7. Parabolik zonalni xususiy yarimo'tkazgichdagi  $600^0$  K temperaturada



1- rasm

Fermi sathininig holati va elektronlar konsentratsyasi topilsin, agar taqiqlangan zonaning shu temperaturadagi o'zgarishi  $E_g = (0.26 - 2.7 \cdot 10^{-4}T) eV$  qonungu bo'yusuna, o'tkazuvchanlik zonasidagi elektron gazining aynishi hisobgu olinmagandagi xatolik baholansin, effektiv massalar  $m_u = 0.1m_e = 0.02 m_e$  ga teng deb va (ilova 4) dagi Fermi integralidan foydalanilsin. Aynish unchali kuchli emas deb olinsin.

4.8. Uy temperaturasida (300K) toza Ge dagi elektronlarning harakatchanligi  $3800 \frac{cm^3}{V \cdot s}$ . Bunday materialning shu temperaturadagi va 30 K dagi solishtirma

qarshiliqi topilsin, elektronlar harakatchanligi  $\mu = aT^{-\frac{3}{2}}$  deb olinsin, bu yerdagi  $a$  - doimiy ( $\text{o'zgarmas}$  son), elektronlarning effektiv massasi  $0.56m_0$ , kovaklarniki esa  $0.07m_0$  ga teng, qaralayotgan hamma temperaturalar uchun taqiqlangan zonaning kengligi  $E_g = (0.785 - 4 \cdot 10^{-4}T) eV$  chiziqli qonun bo'yicha o'zgaradi, elektron va kovaklar harakatchanligining o'zaro nisbati  $b = \frac{\mu_e}{\mu_p} = 2.1$  ga teng deb olinsin.

4.9. Arsenid galliyning o'tkazuvchanlik zonasidagi asosiy minimumdan biri Briyullen zonasining markazida yotadi, undan tashqari boshqa minimumlar ham mavjud bo'lib, ular E<sub>1</sub> dan yuqoriyoq joylashgan (1-rasm) aynimagan elektron gazi uchun shu yarimo'tkazgichdagi va kuchli aynigan holat chegarasidagi Fermi sathining konsentratsyasiga bog'liqligi topilsin. Boshqa zonalarning ta'siri hisobga olinmasin.

4.10. Arsenid galliyning yuqori minimum holatlaridagi aynigan holat hisobga olinmagan holda elektron gazining temperaturaga bog'liqligi hisobga olinib, to'ldirilishi hisobga olinsin. Yuqori minimumdagи elektronlar konsentratsyasi  $n_u$  ning asosiy minimumdagи elektronlar konsentratsyasiga nisbati  $300^0 \text{ K}$  va  $1000^0 \text{ K}$  temperaturalar uchun nimaga teng bo'ladi? Elektronlar uchun effektiv massa zichlik holati (yuqori minimum holat uchun)  $m_u = 15m_e$ ,  $E_s = 0.35 eV$  larga teng deb, elektronlarning to'liq zichligini temperaturaga bog'liq emas deb qabul qiling.

4.11. Arsenid galliyni o'tkazuvchanligi elektron gaz temperaturasiga bog'liqligini tekshiring. Elektronlarning to'liq konsentratsyasi va I, II minimum holatlardagi harakatchanligi temperaturaga bog'liq emas deb olinsin. O'tkazuvchanlikni o'zgarishini elektron gazining temperaturasi  $300 \text{ K}$  dan  $1000 \text{ K}$  gacha o'zgarganda qanday bo'lishligi hisoblansin.  $\frac{\mu_e}{\mu_u} = 50$  boshqa parametrlarning kerakli qiymatlari 4.10 masaladan olinsin.

4.12. Yarimo'tkazgichdagi elektronlar konsentratsyasi, Fermi sathi aniqlansin, kening kichik qiymatlari uchun elektronlar dispersiyasi  $E_n(k) = E_s + \frac{\hbar^2 k^2}{2m} (1 - \gamma A^2)$ , bu yerda  $\gamma$  - doimiy son

4.13. n-tipli aynigan yarimo'tkazgichdagi elektronlar konsentratsyysini Fermi sathi bilan bog'liqlik ifodasi aniqlansin. Dispersiya qonuni (1.3j) ifodadagidek deb qabul qilinsin.

4.14. Quyidagi

$$n = 2 \left( \frac{m_d k T}{2 \pi \hbar^2} \right)^{\frac{3}{2}} F_{1/2}(\eta)$$

ifodani dispersiya qonuni kvadratik qonundan farq qilgan holda  $m_d$  effektiv massani topish ifodasi deb qabul qilsak bo'ladi. Kuchli aynigan holat chegarasida, (1.3j) dispersiya qonuniga bo'ysunuvchi yarimo'tkazgich uchun  $m_d$  ni konsentratsyaga bog'liqligi topilsin. Olingan ifodani xuddi shunga o'xshash  $m^* \theta = \hbar K$  ifoda bilan aniqlanadigan  $m^*$  effektiv massa bilan solishtirilsin. Bu yerda  $\theta$  - elektronning guruhiy tezligi, qaralayotgan dispersiya qonuni uchun  $m^*$  va  $m_d$  orasidagi munosabat aniqlansin.

4.15.  $N_d$  konsentratsyali, bir tipli, bir valentli donorlardan tashkil topgan, aynimagan yarimo'tkazgich uchun Fermi sathining aralashmali soha uchun temperaturaga bog'liqligi o'r ganilsin.

4.16.  $10^{16} \text{ sm}^{-3}$  konsentratsyali surma bilan legirlangan germaniyning donor aralashmali sathi bilan mos tushuvchi Fermi sathi temperaturasi aniqlansin. (surma sath  $E_d = E_s - 0,01 \text{ eV}$ ,  $g_d$  ni esa 2 ga teng deb olinsin). Shu temperaturadagi elektronlar konsentratsyasi nimaga teng?

4.17. Bir turli, bir valentli donor aralashmali yarimo'tkazgichdagi elektronlar konsentratsyasingining temperaturaga bog'liqlik grafigi yasalsin. Tarkibida  $2 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$  surma bo'lgan germaniyda uy temperaturasidagi tok tashuvchilar konsentratsyasi qanday bo'ladi?

4.18. Shunday temperatura oralig'i topilsinki, unda elektronlar konsentratsyasi doimiy (o'zgarmas) bo'lib, donorlar konsentratsyasiga teng bo'ladi. Germaniy uchun interval chegarasi topilsin, germaniyni tarkibida  $2 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$  donorlar mavjud, energetik sathi esa  $E_d = E_s - 0,01 \text{ eV}$  taqilangan zonaning kengligi  $E_x = \Delta - \xi T$ , bu yerda  $\Delta = 0,785 \text{ eV}$  va  $\xi = 4 \cdot 10^{-4} \text{ eV/grad}$ , aynish faktori 2 ga teng.

4.19. Xuddi yuqoridagiga o'xshash masala indiy antimonid uchun yechilsin, elektronning effektiv massasi  $0,15 m_0$ ,  $\Delta = 0,26 \text{ eV}$ ,  $\xi = 0,27 \cdot 10^{-4} \text{ eV/grad}$ ;

$$E_d = E_g - 0,001 \text{ eV}; \quad N_d = 2 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}, g_d = 2.$$

Zonaning noperabolikligi hisobga olinmasin.

4.20. Tarkibida  $N_d$  konsentratsyadagi bir turdag'i bir valentli donorlari bo'lgan aralashmali yarimo'tkazgichda Fermi sathining temperaturaga bog'liqlik grafigi aniqlansin (aynish ta'siri ham e'tiborga olinsin). Germaniy va antimonid indiyalar uchun donorlarning minimal konsentratsyasi baholansin, bu holatda Fermi sathi o'tkazuvchanlik zonasida bo'ladi. Aynishni uncha katta emas ( $\eta \leq 1,3$ ) deb, Fermi integralidan (ilova 4) foydalilanadi. Parametrlarni son qiymatlarini 4.18 va 4.19 masalalardan olinsin.

4.21. Bor bilan legirlangan ( $N_a = 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ ) kremniyning uy temperaturusidu solishtirma qarshiligidini va kovaklar konsentratsyysini hisoblang. Kovaklari uchun holatlar zichligining effektiv massasi  $m_n = 0,59 m_e$ , harakatchanlik  $\mu_p = 100 \text{ sm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$ ,  $g_a = 1$ , kremniydagи borning energetik sathi  $0,045 \text{ eV}$ .

Temperatura  $30 \text{ K}$  bo`lganda kovaklar konsentratsyasi nimaga teng bo`ladi?

4.22. Qisman kompensasiyalangan namuna ( $N_d > N_a$ ) dagi tok tashuvchilar konsentratsyysini aynish hisobga olinmaganda aralashma oblastidagi temperaturaga bog`liqligi aniqlansin. Inning  $\left(\frac{1}{T}\right)$  ga bog`lanishining quyi temperaturaviy qismidagi og`maligini belgilovchi aktivasiya energiyasi nimaga teng?

4.23. Kuchli kompensasiyalangan ( $N_d \approx N_a$ ) yarimo`tkazgichlardagi tashuvchilar konsentratsyysini temperaturaga bog`liqligi ifodasi aniqlansin.

4.24. Germaniy surma va bor bilan legirlangan. Bor konsentratsyasi  $10^{16} \text{ sm}^{-3}$ , kompensasiya darajasi  $N_a / N_d = 0,5$  ga teng, aynish faktori 2 ga teng deb,  $250 \text{ K}$  temperaturadagi elektronlar konsentratsyasi topilsin, agar  $m_n = 0,56 m_e$ ,  $E_d = E_s - 0,01 \text{ eV}$  bo`lsa.

4.25. Qisman kompensirlangan ( $N_d > N_a$ ) yarimo`tkazgichdagi elektronlar konsentratsyysini temperaturaviy grafigi ko`rsatilsin, yarimlogarifmik mashtabdan foydalangan holda grafik o`qlariga inning va  $\left(\frac{1}{T}\right)$  lar qo`yilsin.

4.26. Temperaturaning shunday sohasi topilsinki, unda qisman kompensirlangan yarimo`tkazgich ( $N_d > N_a$ ) dagi elektronlar konsentratsyasi o`zgarmas va  $N_d = N_a$  ga teng bo`ladi. Konsentratsyasi  $2 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$  bo`lgan mishyak ( $E_d = E_s - 0,05 \text{ eV}$ ) va  $1,2 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$  konsentratsyadagi alyuminiy bilan legirlangan kremniy uchun shunday soha chegarasi baholansin. Kremniydagи holatlar zichligining effektiv massasi elektronlar uchun  $1,1 m_e$ , taqiqlangan zonaning lengligi temperatura bo`yicha  $E_p = (1,21 - 2,8 \cdot 10^4 T) \text{ eV}$  qonun bilan o`zgaradi, donorlar uchun aynish faktori 2 deb olinsin.

## 2. Yarimo`tkazgichlardagi zaryad tashuvchilar rekombinasiyasi.

Zaryad tashuvchilar konsentratsyysini  $n_0$  va  $p_0$  larning qiymatlaridan chetl shishi natijasida issiqlik generasiyasi orasidagi balans buziladi - bu bir tomonidan, ikkinchi tomonidan esa, lokal markazlarda tok tashuvchilar ushlabi qolinudi. Elektron - kovaklar rekombinasiyasining absolyut tezliklari  $u_n$  va  $u_p$ , noldan farqli bo`ladi va bu tezliklar tok tashuvchilarning natijaviy ushlashish soniga tengdir ( $1 \text{ sm}^3$ , 1 sekundda)

$$-\left(\frac{\partial \Delta n}{\partial t}\right)_{rek} = u_n = \frac{\Delta n}{\tau_n}; \quad -\left(\frac{\partial \Delta p}{\partial t}\right)_{rek} = u_p = \frac{\Delta p}{\tau_p}; \quad (2.1)$$

tengliklar bilan elektron va kovaklarning yashash vaqtleri aniqlanadi, ya'ni  $\tau_n$  va  $\tau_p$ , nustasionar holatlarda umumiy holda,  $\Delta n = \Delta p$  larga bog'liqdir. Shuningdek, agar zonalararo to'g'ridan - to'g'ri rekombinasiyalar ko'p bo'lsa, u holda

$$u_n = u_p = a(np - n_0 p_0), \quad (2.2)$$

Bu yerda  $a$  - doimiy.

Ko'p hollarda rekombinasiya panjara defektlarida erkin tok tashuvchilarni ushlab qolish bilan amalga oshadi (tutish markazlari yoki tuzoqlar), ular taqiqlangan zonalarda lokal energetik sathlarni hosil qiladi. Odatda aynimagan yarimo'tkazgichda  $N_t$  - konsentratsyada bir turli ushlash markazlari bo'ladi. Ular bitta  $E_s$ -lokal sathni beradi. Stasionario holatlar uchun quyidagi munosabat o'rinnlidir:

$$u_n = u_p = u = N_t \frac{a_n a_p (pn - p_0 n_0)}{a_n (n + n_0) + a_p (p + p_0)}, \quad (2.3)$$

Bu yerda

$$n_0 = N_s \exp \frac{E_s - E_i}{kT}, \quad p_0 = \frac{p_0 n_0}{n_0} = \frac{n_0^2}{N_t} \quad (2.4)$$

$E_i$  ga tuzoqlarning aynishlarini hisobga oluvchi  $kT \ln g$  ham kiritilgan (1.10) bilan solishtirib,  $\alpha_n$  va  $\alpha_p$  lar elektron va kovaklar ushlanish koeffitsiyentlari ifodalariga ushlash kesim yuzasi kattaligini ham kiritish foydali:

$$S_n = \frac{\alpha_n}{v_t}, \quad S_p = \frac{\alpha_p}{v_t}, \quad (2.5)$$

Bu yerda  $v_t = \sqrt{\frac{3kT}{m_0}}$  erkin elektronning "issiqlik" tezligi,  $N_t$  konsentratsya juda kichik bo'lganligi sababli elektronlarni tuzoqlardagi (lovushkalardagi) nomuvazana konsetrasiyasini hisobga olmasa ham bo'ladi:

$$\frac{\Delta n_t}{\Delta p} = -\frac{\Delta p_t}{\Delta p} = \frac{N_t}{n_0 + n_1} \frac{\alpha_n n_1 - \alpha_p n_0}{a_p (p_0 + p_1) + a_n \left[ n_0 + n_1 + \frac{N_t n_1}{n_0 + n_1} \right]} \quad (2.6)$$

Bu tok tashuvchilarni yopishib qolishi sodir bo'lmaydigan holatdir, u holda

$$\tau = \frac{\tau_{n0}(p_0 + p_1 + \Delta n) + \tau_{p0}(n_0 + n_1 + \Delta n)}{n_0 + p_0 + \Delta n} \quad (2.7)$$

bu yerdagi

$$\tau_{n0} = \frac{1}{N_t \alpha_n}, \quad \tau_{p0} = \frac{1}{N_t \alpha_p} \quad (2.8)$$

lar tok tashuvchilar juftining yashash vaqtleri hisoblanadi. Bu vaqtlar kuchsiz uyg'ongan unipolyar materiallardagi  $p$ - va  $n$ - turlarga mos ravishda to'g'ri keladi.

Agar ushslash markazi taqiqlangan zonada 2 ta lokal (mahalliy)  $E_1$  va  $E_2$  suthlar hisosil qilsa, muvozanat holatlardan biroz chetlashish va yopishib qolish hisobga olimmaganda

$$\frac{1}{\tau} = \frac{1 + \frac{n_0}{p_0}}{1 + \frac{p_1}{p_0} + \frac{p_1 p_2}{p_0^2}} N \cdot \left[ \frac{1}{\frac{1}{a_{n1}} + \frac{1}{a_{p1}} \frac{n_1}{p_0}} + \frac{\frac{p_1}{p_0}}{\frac{1}{a_{n2}} + \frac{1}{a_{p2}} \frac{n_2}{p_0}} \right], \quad (2.9)$$

ko'rinishiga ega bo'ladi.

Bu yerda ushslash koefitsiyentlari idagi ikkinchi indekslar tok tashuvchilarini quyisi sati orqali ushlanishini bildirsa,  $n_1, n_2, p_1, p_2$ -lar (2.4) dagiga o'xshash holda  $E_1, n_1$  E<sub>1</sub> yoki  $E_2, n_2$  ga almashtirish bilan aniqlanadi.

Yarimo'tkazgichlarda tutib olish markazlaridan tashqari yana yopishib turish deb ataluvchi markazlar borki, ular o'tkazuvchanlik zonasidan elektronlarni ushlab oladi va yana qaytarib beradi, u holda  $n$ - turdag'i namunada muvozanatdan biroz chetlanganda ham quyidagi ifodalar o'rini bo'ladi.

$$-\frac{\partial \Delta n}{\partial t} = u_r = \frac{\Delta n}{\tau_r} + \frac{\Delta n}{\tau_j} - \frac{\Delta n}{\tau_2}, \quad (2.10)$$

$$-\frac{\partial \Delta p}{\partial t} = u_p = \frac{\Delta n}{\tau_r}, \quad \Delta n_r = \Delta p - \Delta n,$$

Bu yerda  $\tau_r$  - rekombinasiyoning yashash vaqtini

$\tau_r$  - yopishish sathidagi elektronning o'rtacha ushlanish vaqtini

$\tau_j$  - qaytadan tashlangan o'rtacha vaqtini.

4.27. Hajm bo'yicha elektron - kovak juftlarining generasiya to'xtatilgandan so'ng  $t_1 = 10^{-4}$  s o'tgach zaryad tashuvchilarining nomuvozanat konsentratsyasi  $n_1 = 10^{13}$  s<sup>-1</sup> dagidan ko'ra  $n = 10$  marta kattaroq ekanligi aniqlandi. Agar uyg'otish durusasi uncha katta bo'lmasa va rekombinasiya faqat oddiy nuqsonlar orqali yuz berayotgan bo'lsa yashash vaqtini  $\tau$  ni aniqlash.

4.28. 1 sm<sup>2</sup> yuzaga 1s ichida  $I = 5 \cdot 10^{15}$  ta yorug'lik kvanti tushib turuvchi namunadagi o'tkazuvchanlik nisbiy o'zgarishini hisoblang. Yutilish koefitsiyenti  $a = 100 \text{ sm}^{-1}$  namunani qalinligi  $a^{-1}$  ga nisbatan ancha kichik rekombinasiya oddiy nuqsonlarda o'tadi;

$$n_1 = 10^{13} \text{ sm}^{-3}, \tau = 2 \cdot 10^{-4} \text{ s}$$

4.29. Agar generasiya manbai o'chirilgan paytda  $t=0$  rekombinasiyu ( $n_p = n_i^2$ ), tezlik bo'yicha kechayotgan bo'lsa, bunda  $a = \text{const}$   $n$  - turmoddada erkin tok tashuvchilar konsentratsyosining o'zgarish qonuniyatini aniqlang.

4.30. Yarimo'tkazgichda  $N_4 = 5 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-3}$  va  $E_t = (E_s + E_v)/2$  rekombinasiyon markaz mayjud. 300° K da elektron va kovaklarni tutilish kesimi bir xil, muvozanatdan kichik og'ish  $\tau = 10^{-4}$  s,  $\rho = 50 \Omega \text{ sm}$ . Tutilish kesimi  $S$  ni toping.

4.31.  $n$ -Ge ning  $n_0 = 10^{14} \text{ sm}^{-3}$  li namunasida rekombinasiya oddiy markazlarda yuz beradi. Ularning energetik sathi taqiqlangan sohaning yuqori yarmida joylashgan va  $N_d = 2 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-3}$ ;  $T = 300K$  da  $\tau = 17 \text{ mks}$ ,  $T = 200K$  da  $\tau = 2 \text{ mks}$ , juda past temperaturada  $\tau \sim T^{-\frac{1}{2}}$ . Kovaklarning tutilish kesimi  $S_p$  va  $n_0$  ni doimiy deb hisoblab,  $E_i$  esa  $S_p$  ni aniqlang.

4.32. Turli  $n_0$  esa  $p_0$  li Ge namunalarida  $N_d = 2 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$  li oddiy rekombinasiyon markazlar mavjud. 300K da unipolyar  $n$ -Ge da  $\tau = \tau_1 = 8 \text{ mks}$ ,  $p_0 = p_{02} = 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ ,  $\tau_2 = 26 \text{ mks}$  maksimal  $\tau$  esa  $\tau = \tau_{max} = 9 \text{ mks}$ . Markazning energetik sathi taqiqlangan sohaning pastki yarmida joylashgan deb hisoblab, energetik sathi  $E_i$  ni zaryad tashuvchilarning tutilish kesim yuzasi va koefitsiyentini aniqlang.

4.33.  $n$ -turli Ge da ( $n_0 = 10^{15} \text{ sm}^{-3}$ ) stasionar gruppash bilan hajm bo'yicha zaryad tashuvchilar jufti paydo qilinyapti. Kuchsiz yoritilganlikda  $\tau_2 = 2 \text{ mks}$ ,  $\Delta n/n_0 = 0,1$  da rekombinasiya  $\tau = 4,7 \text{ mks}$  bilan yuz beradi. Agar rekombinasiya  $E_i = E_c - 0,20 \text{ eV}$  li oddiy markazlarda yuz berayotgan bo'lsa, 300 K da kovaklar va elektronlarning tutilish kesim yuzasi nisbatlarini hisoblang.

4.34. 300 K da  $\rho_n = 1,65 \Omega \cdot \text{sm}$   $n$ -Ge li namunali uchun kuchsiz yoritilganligida yashash vaqtি  $\tau = \tau_1 = 2,0 \text{ mks}$ , kuchliroq uyg'otishida  $\rho_l = 1,275 \Omega \cdot \text{sm}$  va  $\tau = \tau_1 = 3,3 \text{ mks}$ . Rekombinasiya  $E_i = E_b + 0,32 \text{ eV}$  sath orqali yuz beradi deb hisoblab, monopolyar  $p$ -va  $n$ -Ge uchun shu rekombinasiya mexanizmida yashash vaqtini hisoblang.

4.35. Yarimo'tkazgichga  $N_d = 10^{16} \text{ sm}^{-3}$  konsentratsyali akseptor aralashma kiritilgan. Ularni sathi taqiqlangan sohani o'rtafiga yaqin joylashgan. Tutilish kesimlari nisbati  $S_n/S_p = 100$ . Bunda yarimo'tkazgichga sayoz holatlari donor  $N_d = 10^{15} \text{ sm}^{-3}$  kiritilgan. Past temperaturada namuna yorug'lilik bilan nurlantiriladi, bunda hajm bo'yicha bir tekisda  $g = 10^{19} \text{ sm}^{-3} \text{s}^{-1}$  juft tezlikda zaryad tashuvchilar paydo bo'ladi. Elektronlarning yashash vaqtি  $\tau_n = 10 \text{ mks}$ ,  $\tau$  nomuwozanatlari  $\Delta n$  va  $\Delta p$  konsentratsyalarni, shuningdek tutilish koefitsiyentlari  $\alpha_n$  esa  $\alpha_p$  ni aniqlang.

4.36.  $p$ -Ge da nomuwozanatlari zaryad tashuvchilarning yashash vaqtি  $\tau$  ni aniqlashda temperatura xona temperaturasidan to  $T = 120^{\circ}\text{K}$  gacha o'zgargan.  $\tau$  ni temperaturaga bog'liqligi quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan:

$$\tau = 10^{-5} \left[ 3,1 - 6,2 \ln \left( \frac{955}{T} - 4,41 \right) \right] \text{ sek}$$

Rekombinasiya 2 ta  $E_i$  - taqiqlash sohasini pastki yarim va  $E_i$  - yuqori yarim sohasida bo'lishi ma'lum. Elektronlarning tutilish koefitsiyentini  $\alpha_{n1}$  va  $\alpha_{n2}$  hamda  $p_0$   $n_0$  doimiy deb hisoblab, bu kattaliklar va  $E_i$  ni aniqlashida

$N_i = 2 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-3}$  va  $N_v = 10^{19} \text{ sm}^{-3} = \text{const.}$  deb hisoblang. 200 K temperaturada elektronlarning tutish kesim yuzasini aniqlang.

4.37. Muvozanatdan kuchsiz og'ishni hosil qiluvchi stasionar generasiya to'xtatilgandan so'ng,  $n$ -turli yarimo'tkazgichda qo'shimcha zaryad tashuvchilarining konsentratsyasi qanday o'zgarishini aniqlash. Rekombinasiya vaqtiga  $\tau_r$ , tutilish vaqtiga  $\tau_1$  va teskari o'tish vaqtiga  $\tau_2$  ma'lum deb hisoblansin.

4.38. Yuqoridagi masala shartida ifodalangan sharoitda  $n_0 = 5 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$  bunda stasionar generasiya  $g = 10^{19} \text{ sm}^{-3} \cdot \text{s}^{-1}$   $n - Ge$  da o'tkazuvchanlikni nisbiy o'zgarishi aniqlansin va agar  $\tau_r = 2 \text{ mks}$ ,  $\tau_1 = 5 \text{ mks}$ ,  $\tau_2 = 50 \text{ mks}$ . bo'lsa uning relaksasiyasini miqdoriy tadqiq qilish.

4.39.  $n$ -turdagi germaniyda kuchsiz qo'zg'atishda fotootkazuvchanlik fotolektromagnit effektlar bo'yicha aniqlangan.  $\frac{\Delta p_1}{\Delta p} = 24$  va  $n_0 = 4 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$  Rekombinasiya  $E_r = E_s + 0.16 \text{ eV}$ ,  $N_i = 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ ,  $a_p = 10^{-3} \text{ sm}^3 \cdot \text{s}^{-1}$  markazda yuz beradi.  $N_i = N_v = 10^{12} \text{ sm}^{-3}$  konsentratsyali va yuqoridagidek tabiatli markazlar mavjud bo'lganda hamda kuchsiz uyg'atish holati uchun elektron va kovaklarning yashash vaqtiga aniqlansin.

### 3. Zaryad tashuvchilarining diffuziyasi va dreyfi

Zaryad tashuvchilarining notejisini taqsimoti natijasida namunada diffuzion toklari yuzaga keladi. Elektron va kovak diffuzion toklari quyidagi tenglamalar bilun aniqlanadi:

$$j_{n,dif} = eD_n grad n \quad j_{p,dif} = -eD_p grad p \quad (3.1)$$

Bunda  $e$  - elektron zaryadi,  $D_n$  va  $D_p$  - elektron va kovaklarning difiuziya koefitsientlari,  $n$  va  $p$  ularning konsentratsyasi.

Elektron va kovaklarning to'liq toki ushbu holda diffuzion va dreyf tashkil etuvchilar yig'indisidan iborat:

$$j_n = eD_n grad n + en\mu_n E,$$

$$j_p = -eD_p grad p + ep\mu_p E. \quad (3.2)$$

Bu yerda  $\mu_n$  va  $\mu_p$  - elektron va kovaklar harakatchanganligi.

Muvozanat holatida, unipolyar, masalan elektron yarimo'tkazgichda tok bo'lmaadi:

$$j_n = j_{n,dif} + j_{n,dr} = 0. \quad (3.3)$$

Elektronlarning konsentratsyясини (1.5) formula yordamida o'tkazuvchanlik zonasining  $-e\varphi$  (2) pasayishini hisobga olgan holda, bunda  $\varphi$  - elektrostatik potensialni deb hisoblab va (3.1) dan quyidagini topamiz:

$$j_{n,dr} = \frac{e^2 D_n}{kT} \frac{dn}{d\eta} grad \varphi, \quad (3.4)$$

Bunda  $\eta = \frac{E - E_S}{kT}$ . Bundan (3.2) va (3.3) ga asoslanib topamiz:

$$D_n = \frac{n \mu_n kT}{e} \frac{\frac{dn}{d\eta}}{\frac{d\eta}{d\eta}}. \quad (3.5)$$

Xuddi shunday kovaklar uchun ham:

$$D_p = - \frac{p \mu_p kT}{e} \frac{\frac{dp}{d\eta}}{\frac{d\eta}{d\eta}}. \quad (3.6)$$

Aynimagan yarimo'tkazgichlar uchun (1.7) ifoda o'rini bo'lganda (3.5) va (3.6) tengliklar Eynshteyn ifodasiga o'tadi:

$$D_n = \frac{\mu_n kT}{e}, \quad D_p = \frac{\mu_p kT}{e}. \quad (3.7)$$

Elektronlar va kovaklar kinetikasi uzliksizlik tenglamasi orqali tavsiflanadi:

$$\begin{aligned} \frac{\partial n}{\partial t} &= g - \frac{\Delta n}{\tau_n} + \frac{1}{e} \operatorname{div} j_n, \\ \frac{\partial p}{\partial t} &= g - \frac{\Delta p}{\tau_p} + \frac{1}{e} \operatorname{div} j_p, \end{aligned} \quad (3.8)$$

Bu yerda  $\Delta n$  va  $\Delta p$  elektron va kovaklar konsentratsyasi  $n$  va  $p$  lar bilan ularning muvozanat paytidagi qiymatlari  $n$ , va  $p$ , orasidagi farq,  $g$ -birlik vaqt ichida namuna birlik hajmida paydo bo'lgan elektron - kovak juftlari soni:

$$g = \gamma a I e^{-\alpha x}, \quad (3.9)$$

Bunda  $\gamma$ -kvant chiqishi,  $\alpha$ -yorug'likning yutilish koeffitsenti,  $I e^{-\alpha x}$  - kvant oqimi zichligi.  $\tau_n$  va  $\tau_p$  elektron va kovaklarning yashash vaqt (2.1) va (2.3) ifoda orqali hisoblanadi.

Diffuziya hodisasi ko'rib chiqilayotganda odatda uzunlik o'lchamidagi xarakterli kattalik kiritiladi:

$$L_n = \sqrt{D_n \tau_n}, \quad L_p = \sqrt{D_p \tau_p}, \quad (3.10)$$

Bular mos ravishda elektron va kovaklarini diffuzion uzunligi deyiladi.

(3.8) va (3.2) tenglamalarga elektroneytrallik buzilgan hol uchun Puasson tenglamasini qo'shish lozim bo'ladi:

$$\operatorname{div} E = \frac{4\pi\rho}{\epsilon}. \quad (3.11)$$

Bunda  $\rho$  - elektr zaryad zichlik,  $\epsilon$  - yarimo'tkazgichning dielektrik singdiruvchanligi.

Ta'kidlash joizki, ko'pincha yarimo'tkazgichning lokal elektroneytrallik shartini kiritish mumkin.

Ushlanish bo'lmasan holda, ya'ni  $\tau_n = \tau_p = \tau$ , bu quyidagini anglatadi:

$$\begin{aligned} \Delta n &= \Delta p, \\ \rho = 0, \quad \operatorname{div}(j_n + j_p) &= 0 \end{aligned} \quad (3.12)$$

Bunda elektron va kovoklarning diffuziya va dreyfi o'zaro bog'liq - tez diffuziyalanuvchi tashuvchilarini tormozlovchi va sekinlanganlarini tortuvchi elektr maydon yuzaga keladi.

Oriqcha zaryad tashuvchilarning yagona neytral frontining tarqalishi, (3.8) va (3.12) ga asosan, quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$\frac{\partial(\Delta p)}{\partial t} = g - \frac{\Delta p}{\tau} + \operatorname{div}(D \operatorname{grad} \Delta p) - \mu E \operatorname{grad} \Delta p, \quad (3.13)$$

Bunda D-bipolyar diffuziya koefitsenti,  $\mu$ -bipolyar dreyf harakatchanligi

$$D = \frac{n+p}{\frac{n}{D_p} + \frac{p}{D_p}}, \quad \mu = \frac{n-p}{\frac{n}{\mu_p} + \frac{p}{\mu_p}}. \quad (3.14)$$

Ushbu hodisa uchun harakterli uzunlik bu bipolyar diffuziya uzunligi L dir:

$$L = \sqrt{D\tau}. \quad (3.15)$$

Bipolyar diffuziya tenglamasi D-konstanta bo'lgan holda soddalashadi. Bu shunday holki, bir turdag'i zaryadlar ko'p bo'lib bunda D - asosiy bo'limgan zaryad tashuvchilar diffuziya koefitsenti, yoki xususiy o'tkazuvchanlik uchun:

$$n = p, \quad D = \frac{2D_n D_p}{D_n + D_p}, \quad (3.16)$$

Bunda  $\mu = 0$ .

Nihoyat, (3.13) tenglama uchun chegaraviy shartiarni ifodalash darkor. Yurimo'tkazgich sirtida zaryad tashuvchilar rekombinasiyasi yuz berib turadi.  $1 \text{ cm}^2$  yuzada  $1 \text{ s}$  ichida rekombinasiyanuvchi juftlar sonini  $s$ , deb belgilaymiz va  $s$ , bilan quyidagi ifoda orqali bog'langan sirtiy rekombinasiya tezligini aniqlaymiz ( $\text{sm/s}$  o'lchamlikda):

$$s = \frac{u_s}{\Delta n} = \frac{u_s}{\Delta p}, \quad (3.17)$$

Bunda  $\Delta n = \Delta p$  - sirdagi ortiqcha zaryad tashuvchilar konsentratsyasi, sirtda rekombinasiyanuvchi elektron va kovaklar u yerda sirtga qarab yo'nalgan ortiqcha zaryad tashuvchilar oqimi va sirtiy generasiya hisobiga paydo bo'ladi. Shuning uchun p-tur yarimo'tkazgichda sirt uchun chegaraviy shart quyidagi ko'rinishga ega:

$$g_s = \frac{1}{e} (J_n v) + s \Delta n,$$

bunda  $v$  sirtga o'tkazilgan tashqi birlik normal vektor. Bundan keyin yarimo'tkazgich kontaktidagi zaryad tashuvchilar tok zichligi uchun chegaraviy sharti - asosiy bo'limgan zaryad tashuvchilar tokining umumiy tokka nishbati bilan aniqlanuvchi injeksiya koefitsiyentini berish yo'li bilan ifodalaymiz.

4.40. Xona temperaturasida aynimagan germaniyda elektronlar diffuziya koefitsiyentlarini hisoblang ( $\mu_n = 3800 \text{ sm}^2 / V \cdot \text{s}$ )

4.41. To'liq aynigan hol uchun elektronlar diffuziya koefitsiyenti hisoblang, elektronlar dispersiyasi (1.3 a) ko'rinishga ega,

$$\mu_n = 300 \text{ sm}^2 / V \cdot s, n = 10^{18} \text{ sm}^{-3}, m_e = 0.2m_0.$$

4.42. Agar energiyaning kvazito'lqin vektoriga bog'liqligi (1.3b) ko'rinishda bo'lса, aynigan elektron gaz uchun diffuziya koeffisiyenti ifodasi olinsin.

4.43. Xona temperaturasida xususiy germaniy uchun diffuziya koeffisiyent hisoblansin ( $b = 2.1$ ,  $\mu_n = 3800 \text{ sm}^2 / V \cdot s$ )


4.44.  $n$ -Ge qalin namunasi sirtida zaryad (2-rasm), tashuvchilarning nomuvozanatli konsentratsyysini toping. Juftlar generasiyasi hajm bo'yich tezis:  $g_0 = 2.5 \cdot 10^{17} \text{ sm}^3 \cdot s^{-1}$ , kovaklar yashash vaqtı  $\tau_p = 4 \cdot 10^{-6} \text{ s}$  sirt rekombinasiyali tezligi  $S = 5 \cdot 10^2 \text{ sm} / s$ ,  $D_p = 49 \text{ sm}^2 / s$ .

4.45.  $n$ -Ge ning qalin namunasining yoritilgan sirtida kovaklarning nomuvozanat konsentratsyasi topilsin. Bunda  $s = 5 \cdot 10^2 \text{ sm} / s$ , kvantlar oqimi zichligi  $I = 5 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-2} \cdot s^{-1}$ , kvant chiqishi  $\gamma = 1$ , yorug'likning yutilish koeffisiyenti  $a = 10^3 \text{ sm}^{-1}$ ,  $\tau_p = 10^{-4} \text{ s}$ ,  $D_p = 49 \text{ sm}^2 / s$ .

4.46. Yarimo'tkazgich sirtiga normal yo'nalishda yuzaga keluvchi Dembel effekti uchun elektron maydon kuchlanganligi ifodasini oling (2-rasmga qarang). Yoritilish shundayki, elektron - kovak juftlarining hosil bo'lishi yupqa sirtiy holatda bo'ladi, olingan ifodani  $T = 300K$  temperaturada  $n$ -Ge uchun tahlii qiling, bunda  $L = 0.3 \text{ mm}$ ,  $n_0 = 5 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ ,  $\epsilon = 16$ . Injeksiya sathini kichik dehisoblang:  $\Delta\sigma/\sigma_0 \ll 1$ . Shuningdek  $|\Delta n - \Delta p| \ll \Delta p$  deb oling.

4.47.  $n$ -turdagи germaniy qalin namunasining yoritilgan va qora sirtlari orasidagi Dembel effekti natijasida yuzaga kelgan potensallar farqi topilsin. (2-rasmga qarang). Sirtiy juftlar generasiyasi intensivligi  $g_0 = 10^{15} \text{ sm}^{-2} \cdot s^{-1}$ , nomuvozanatli zaryad tashuvchilarning yashash vaqtı  $\tau = 19.3 \cdot 10^{-6} \text{ s}$ , sirtiy rekombinasiya tezligi  $s = 100 \text{ sm} / s$ ,  $D_n = 98 \text{ sm}^2 / s$ ,  $b = 2.1$ ,  $n_0 = 5 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$


4.48.  $n$ -turdagи yarimo'tkazgich yupqa plastinkasining ustki va pastki chegaralarida nomuvozanatni zaryad tashuvchilar konsentratsyasi topilsin.



2- rasm

Bunda namuna yorug'lik ta'sirida hajmi generasiya ta'sirida, kvant oqimi zichligi  $I = 5 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-2} \cdot s^{-1}$ , yutilish koeffisiyenti  $a = 5 \text{ sm}^{-1}$ , kvant chiqishi 1, plastinka qalil ligi  $d = 0.7 \text{ mm}$ , sirtiy rekombinasiya tezligi  $s = 500 \text{ sm} / s$ ,  $\tau_p = 10^{-4} \text{ s}$ ,  $D_p = 49 \text{ sm}^2 / s$ .

4.49. Kovaklarning stasionar injeksiyasi va namuna bo'yicha  $E = 5 \text{ V}/\text{sm}$  elektron maydoni bo'lgan  $n$ -Ge sharotida uzun ipsimon namunasida nomuvozanatni kovaklar taqsimotini aniqlang. Xona temperaturasi, yarimo'tkazgich aynimagan,  $L_p = 0.09 \text{ sm}$ .



3- rasm

4.50. Bir jinsli yarim cheksiz elektron yarimo'tkazgichning  $x=0$  nuqtasida stasionar ravishida kovaklar injeksiyalanadi. Agar injeksiya koefisiyenti  $\gamma = 0,5$ , to'liq tok zichligi  $1,6 \text{ mA/sm}^2$ ,  $L_p = 0,1 \text{ sm}$ ,  $D_p = 50 \text{ sm}^2/\text{s}$  bo'lsa,  $x=0$  nuqtada kiritilgan kovaklar konsentratsyasi aniqlansin, kovaklar dreyfi hisobga olinmasin.

4.51. Oldingi masala shartidan foydalanib (biroq  $L_p = 0,05 \text{ sm}$ ), injeksiya nuqtasida elektr maydon kuchlanganligini hisoblang, bunda namunaning solishtirma o'tkazuvchanligi  $\sigma_0 = 0,1 \Omega^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$ ,  $b = 2,1$  deb olish mumkin.


4.52. Bir jinsli yarim cheksiz elektron yarimo'tkazgichning  $x=0$  nuqtasida stasionar ravishda injeksiyalanayotgan kovaklar taqsimotini tadqiq eting, bunda kovaklar yashash vaqtি  $\tau_p = a/p$ , ( $a$  – doimiy kattalik),  $\Delta p \gg p_0$ , deb hisoblang, kovaklar dreyfini hisobga olmang. 4.53.  $x=0$  nuqtasiga kuchli  $E > 0$  elektr maydon qo'yilgan. Kuchsiz legirlangan elektron yarimo'tkazgich yarim cheklangan ( $0 \leq x < \infty$ ) namuna chegarasida nomuvozanatli kovaklar konsentratsyasi hisoblansin, injeksiya koefisiyenti  $\gamma = 0,15$ ,  $n_0 = 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ ,  $p_0 = 0,5 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ ,  $b = 2,1$ ,  $\Delta n = \Delta p \ll n_0$  va jarayon stasionar deb hisoblang.

4.54. Oldingi masalada  $E < 0$  deb olib,  $x=0$  da nomuvozanatli kovaklar konsentratsyasi hisoblang.

4.55. Bir jinsli elektron yarimo'tkazgich namunasining qaysidir nuqtasida yoruglik zondi yordamida zaryad tashuvchilar jufti paydo qilinmoqda. Agar sondan  $x_1 = 2 \text{ mm}$  masofada nomuzonatli zaryad tashuvchilar konsentratsyasi  $\Delta p_1 = 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ ,  $x_2 = 4,3 \text{ mm}$  masofada  $\Delta p_2 = 10^{13} \text{ sm}^{-3}$  bo'lsa, bir o'lchamli holat uchun kovaklar diffuziya uzunligi topilsin.

#### 4. Magnit maydonda zaryad tashuvchilarining diffuziyasi va dreyfi.

Elektr maydoni  $E$  va unga perpendikulyar kuchsiz magnit maydoni  $H$  da joylashgan bir jinsli izotrop yarimo'tkazgichda tok zichligi quyidagicha bo'ladi:



4- rasm

$$j_n = ne\mu_n \left\{ E \left[ 1 - \eta_n \left( \frac{\mu_{nH} H}{c} \right)^2 \right] - \frac{\mu_{nH}}{c} [\bar{E} \times \bar{H}] \right\}, \quad (4.1)$$

$$j_p = pe\mu_p \left\{ E \left[ 1 - \eta_p \left( \frac{\mu_{pH} H}{c} \right)^2 \right] - \frac{\mu_{pH}}{c} [\bar{E} \times \bar{H}] \right\}, \quad (4.2)$$

Bu yerda  $\mu_{nH}$  va  $\mu_{pH}$  – Xoll harakatchanligi,  $\eta_n$  va  $\eta_p$  – zaryad tashuvchilar erkin yugirishi yo'lining energiyaga bog'liqligidan aniqlanuvchi doimiylar, magnit maydon shu ma'noda kuchsiz hisoblanadi, agar  $\mu_{nH} H/c \ll 1$ .

$\mu_{ph} H / c \ll 1$  bo'lsa. Bu holda keltirilgan formulalarda ikkinchidan yuqoritartibli hadlar tashlab yuboriladi.

4 - rasmda keltirilgan tajriba sharoitlarida namunaning yon yoqlari orasidashunday potensiallar farqi  $V_H$  hosil bo'ladiki, bunda y o'qi bo'yicha  $E_x$  - Xo maydoni ta'siri kuzatiladi.

Quyidagi ifoda Xoll doimiysi nomini olgan ( $j_x$  - tok zichligining ta'si etuvchisi):

$$R = \frac{cE_y}{j_x H} \quad (4.3)$$

Xuddi shu sharoitlarda  $E_x$  va  $j_x$  orasidagi munosabat quyidagicha:

$$j_x = (\sigma_0 + \Delta\sigma) E_x, \quad (4.4)$$

$\sigma_0$  -  $H = 0$  dagi o'tkazuvchanlik, kuchsiz magnit maydoni o'tkazuvchanlikning nisbiy o'zgarishi odatda quyidagicha topiladi:

$$-\frac{\Delta\sigma}{\sigma_0} = \xi R_0^2 \sigma_0^2 \frac{H^2}{c^2}. \quad (4.5)$$

Bu yerda  $R_0$  - Xoll doimiysining qiymati ( $H \rightarrow 0$  da),  $\xi$  - magnit qarshiliq koefitsiyenti.

Bir jinsli bo'limgan aynimagan yarimo'tkazgich holida ( $n$  va  $p$  koordinating bog'liq) (4.1) ifodaga quyidagicha o'zgartirish kiritish lozim:

$$\vec{E} \rightarrow \vec{E}_n^* = \vec{E} + \frac{kT}{e} \text{grad} \ln n, \quad (4.1a)$$

(4.2) da esa

$$\vec{E} \rightarrow \vec{E}_p^* = \vec{E} - \frac{kT}{e} \text{grad} \ln p. \quad (4.2a)$$

Agar magnit maydon katta bo'lsa (lekin hali kvant effektlari sezilar bo'limganda  $\frac{eHh}{mc kT} \gg 1$ ). Magnit maydon quyidagi tenglamalar orqa hisobga olinadi (bunda zaryad tashuvchilar erkin yugurish yo'li energiyasi bog'liq bo'limgan hol qarab chiqiladi):

$$\vec{j}_n = \frac{n e \mu_n}{1 + \left( \frac{\mu_n H}{c} \right)^2} \left\{ \vec{E} - \frac{\mu_n}{c} (\vec{E} \times \vec{H}) \right\}, \quad (4.6)$$

$$\vec{j}_p = \frac{p e \mu_p}{1 + \left( \frac{\mu_p H}{c} \right)^2} \left\{ \vec{E} + \frac{\mu_p}{c} (\vec{E} \times \vec{H}) \right\}. \quad (4.7)$$

Magnit maydon tomonidan og'diriluvchi birlamchi zaryad tashuchilar oqim faqat tashqi  $E_x$  maydon tomonidan hosil qilinmaydi, balki 5 - rasmda ko'rsatilgandek, to'g'ri to'rtburchak shaklidagi namunaning izolyasiyalangan yog'i shunday yoritiulganda elektron va kovaklar juftlari hajm bo'yicha noteki vujudga kelishiga binoan ham hosil bo'ladi.

• yo'nalish bo'yicha diffuzion oqim hosil bo'ladi, magnit maydon ta'siri esa y yo'nalishi bo'yicha o'tadi, yoqlar orasida fotoelektromagnit effekt kuchlanishi yuzaga keladi. Namuna o'lchami katta bo'lgani uchun ZY tekislikdu parametrlar  $x$  va  $y$  ga bog'liq bo'lmaydi.

Stasionarlik shartidan  $\text{rot} \vec{E} = 0$ ,  $\frac{dE_z}{dx} = 0$ ,

ya'ni  $E_z$  hamma joyda bir hil.

Qurulayotgan sistemani quyidagi tenglamalar orqali ifodalash mumkin:

$$\frac{1}{e} \frac{d\tau_n}{dx} j_{nx} = \frac{\Delta n}{\tau_n} = \frac{\Delta p}{\tau_p} = -\frac{1}{e} \frac{d\tau_p}{dx} j_{px}, \quad (4.8)$$

$$j_{nx} + j_{px} = 0. \quad (4.9)$$



Bu yerda tutilish sathlarining to'lishi ortiqcha konsentratsyaga proporsional. Kichik magnit maydonda tok zichligi uchun ifodada birinchi yaqinlashishida  $H$  li hadlarni hisobga olmaslik mumkin.

5- rasm

$$\vec{j}_n = \vec{j}_n^* - \frac{\mu_{nH}}{c} [\vec{j}_n^* \times \vec{H}], \quad \vec{j}_n^* = ne\mu_n \vec{E} + eD_n \text{grad}n, \quad (4.10)$$

$$\vec{j}_p = \vec{j}_p^* - \frac{\mu_{pH}}{c} [\vec{j}_p^* \times \vec{H}], \quad \vec{j}_p^* = pe\mu_p \vec{E} - eD_p \text{grad}p \quad (4.11)$$

Mi vi  $\Delta p$  larni bir o'lchamli chegaraviy shartlar asosida topiladi:

$$g = -\frac{1}{e} j_{nx} + S_0 \Delta n, \quad x = 0;$$

$$0 = \frac{1}{e} j_{nx} + S_d \Delta n, \quad x = d.$$

Indi FEM - effekt tok zichligi ( $j_x$ ) ni quyidagi tenglamadan topish mumkin (yoki FEM effekt elektr maydoni  $E_x$ , misol uchun  $\int dx j_x = 0$  da):

$$j_x = eE_x(n\mu_n + p\mu_p) + \frac{eH(\mu_{nH} + \mu_{pH})}{c} D_x^* \frac{dn}{dx}. \quad (4.12)$$

Bu yerda  $n = n_0 + \Delta n$ ,  $D$  - bipolyar diffuziya koefisiyenti (3.14) va

$$D_x^* = D \frac{n\tau_p + p\tau_n}{\tau_n(n+p)} \quad (4.13)$$

4.56. n turdag'i namunada  $x$ -o'qi bo'yicha  $j_x = 0.1 A/sm^2$  tok bor (4-rasmiga qarang)  $x$  - o'q bo'yicha magnit maydon  $H = 1000$  ers. Panjara tebranishlaridagi sohilish sharoitida  $\mu_{nH} = 1.18 \cdot \mu_n$ . Agar  $n_0 = 10^{15} sm^{-3}$  va namunaning y yo'nalishi bo'yicha o'lchami  $a = 0.5 sm$  bo'lsa, Xoll kuchlanishi  $V_H$  va  $R$  ni aniqlang.

4.57. p - turdag'i namunaga tok yo'nalishiga tik ravishda  $H_x = 4000$  ers magnit maydon qo'yilgunda qarshilik 0,22% ga oshdi.

Agar  $\mu_{ph} = 2240 \text{ sm}^2 / V \cdot s$ , bo'lsa, ((4.1) va (4.2) ifodadagi) magnit qarshilik  $\xi$ , va  $n_p$  koeffitsiyent hisoblansin.

4.58. Agar Xoll harakatchanlikning dreyf harakatchanligiga nisbati  $1,18$  bo'lsa  $N_s = 5 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$  konsentratsyali akseptor aralashmasi bo'lgan  $InSb$  da  $T = 300K$  temperaturada Xoll doimiysini aniqlang.  $\mu_n / \mu_p = 80$ , magnit maydon kuchsiz  $n_i = 1,6 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$ , akseptorlarni butunlay ionizasiyalangan deb tushuning. 4.59  $p$ -tur yarimo'kazgichda  $\beta = \mu_{ph} H / c = 0.2$  bo'lganda  $R=0$ , magnit qarshilik koeffitsiyenti  $\xi$  ni aniqlang.  $b = \mu_n / \mu_p = 30$  va elektronning erkin yugurish yo'li energiyaga bog'liq emas.

4.60. Agar  $\beta = 0,07$  sirdagi qoshimcha zaryad tashuvchilar maksimal konsentratsyasi  $\Delta n(0) = 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ ,  $n$ -turli namunada  $\rho_g = 1,6 \Omega \cdot \text{sm}$ ,  $D_p = 45 \text{ sm}^2 / s$ ,  $b = 2,1$  bo'lsa, massiv kubik namunaning yoqiari orasidagi FEM - effek kuchlanishini aniqlang.

4.61. Agar y o'qi bo'yicha qo'yilgan  $E_{ly} = 0,168 \text{ V} / \text{sm}$  elektr maydoni (5-rasmga qarang) va  $H = 1000 \text{ ers}$  ( $z$ ) o'qi bo'yicha magnit maydoni  $x$  o'qig perpendikulyar tushayotgan yoritilganlikka bog'liq bo'lmasa,  $p$ -tu yarimo'kazgichda tok tashuvchilarni yashash vaqtini aniqlang.  $D_n = 98 \text{ sm}^2 / s$

$$\frac{\mu_{eff} + \mu_{ph}}{\mu_n + \mu_p} = 1,2$$
. Namunaning o'chamlarini yetarlicha katta deb oling. Tutilishlar yo'q.

4.62.  $n$ -tur yarimo'kazgichning  $x = 0$  sirtida (5-rasmga qarang) nomuvozanalar zaryad tashuvchilar yorug'lik ta'sirida shunday hosil bo'lyaptiki, bunda  $\Delta n(0) = 2 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ , qarshilikning nisbiy kamayshi  $\delta = 1,2\%$ ,  $V_{FBM} = 3,8 \cdot 10^{-3} V$ ,  $\beta = 0,1$ . Agar  $\mu_n = 3800 \text{ sm}^2 / V \cdot s$ ,  $b = 2,1$ ,  $D_p = 45 \text{ sm}^2 / s$ ,  $d = 0,2 \text{ sm}$  hamda o'qi bo'yicha namuna o'chami  $a = 1 \text{ sm}$  bo'lsa,  $\tau_p$  va  $\tau_n$  larni aniqlang.

## 5. Sirtiy hodisalar

Yarimo'kazgichda sirtiy holatlarning mavjudligi elektr zaryadinining ikkilamchi qatlamining paydo bo'lishiga olib keladi. Ular akseptor yoki donorligiga qarab manfiy yoki musbat zaryadlanadi, hamda sirtga yaqin sohada hajmiy zaryad sohasi vujudga keladi. Hosil bo'lgan elektr maydon energetik sathlarni akseptor holida yuqoriga va donor holida pastga egadi:

$$E_e(r) = E_{e0} - e\phi(r), \quad (5.1)$$

$$E_g(r) = E_{g0} - e\phi(r)$$

Hajmiy zaryad sohasida elektron va kovaklarning konsentratsyasi koordinatag bog'liq bo'ladi. Aynimagan yarimo'kazgich holida ushbu bog'lanish quyidagi ko'rinishga ega:

$$n(r) = N_c e^{\frac{F - E_{\text{c}} + \epsilon\varphi(r)}{kT}} = n e^{\frac{\epsilon\varphi(r)}{kT}}, \quad (5.2)$$

$$p(r) = N_a e^{\frac{E_a - \epsilon\varphi(r) - F}{kT}} = p e^{\frac{-\epsilon\varphi(r)}{kT}}.$$

Elektrostatik potensial  $\varphi(r)$  ni aniqlash uchun chegaraviy shartlar asosida, Poisson tenglamasini yechish darkor:

$$\operatorname{div} D = 4\pi\rho, \quad \bar{D} = \epsilon \bar{E} = -\epsilon \frac{d\varphi}{dr}, \quad (5.3)$$

Bu yerda  $\rho$  - hajmiy zaryad zichligi  $\epsilon$  - dielektrik singdiruvchanlik,  
 $\rho = e[N_a^+(r) - N_a^-(r) + p(r) - n(r)]$  (5.4)

va  $p(r)$  (5.2) formula bilan aniqlanadi, hajmiy zaryad sohasidagi ionizasiyalashgan donor va akseptorlarning konsentratsyasi esa quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$N_D^+ = \frac{N_a}{1 + e^{\frac{F - E_D + \epsilon\varphi(r)}{kT}}}, \quad (5.5)$$

$$N_a^- = \frac{N_a}{1 + e^{\frac{E_a - F - \epsilon\varphi(r)}{kT}}},$$

Bu yerda  $E_a = E_a^* + kT \ln g_a$ ,  $E_D = E_D^* + kT \ln g_D$ , yarimo'tkazgich hajmidagi akseptor va donor sohasi energiyasi,  $g_a$  va  $g_D$  - akseptor va donor sathlarning aynish darjasasi hajmiy zaryad sohasi kengligi ekranlashtirish uzunligi yoki Dehay ( $L_D$ ) uzunligi bilan xarakterlanadi. Elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan yarimo'tkazgich uchun u quyidagiga teng:

$$L_D = \sqrt{\frac{ekT}{4\pi\epsilon^2 n}}, \quad (5.6)$$

Xususiy yarimo'tkazgich uchun esa quyidagiga teng:

$$L_D = \sqrt{\frac{ekT}{8\pi\epsilon^2 n_i}}, \quad (5.7)$$

Ajor tushqi elektr maydon bo'lmasa yarimo'tkazgich elektroneytraldir. Yarim cheksiz yarimo'tkazgich namuna uchun elektroneytrallik sharti quyidagicha ifodalanadi (xuddi shu hol keyinchalik  $x=0$  sirt bilan qarab chiqiladi) ( $0 \leq x \leq \infty$ ):

$$\int_0^\infty \rho(x) dx + Q_s = 0, \quad (5.8)$$

Bu yerda  $Q_s$  - sirtiy holatlardagi sirtiy zaryad zichligi. Hajmiy zaryad qutlamasiagi ortiqcha elektronlar va kovaklar konsentratsyasi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\Delta N = \int_0^\infty [n(x) - n] dx, \quad \Delta P = \int_0^\infty [p(x) - p] dx \quad (5.9)$$

bu yerda  $n$  va  $p$  elektron va kovaklarning hajmdagi konsentratsyasi. Sirtli o'tkazuvchanlik  $G$  quyidagicha aniqlanadi:

$$G = e\mu_n^* \Delta N + e\mu_p^* \Delta P, \quad (5.10)$$

Bunda  $\mu_n^*$ ,  $\mu_p^*$  - elektron va kovaklarning hajmiy zaryad qatlamidagi effektiv harakatchanligi. Ko'pincha ular namuna hajmidagi harakatchanlikka teng deb olinadi.

4.63. Agar xususiy o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan yarimo'tkazgich sirtiga nor-

mal ravishda kuchsiz elektr maydon  $E$  qo'yilgan bo'lsa, bunda yarimo'tkazgichning hamma joyida  $e\phi/kT \ll 1$  bo'lsa (6-rasm), zonalarning shaklini aniqlang. Agar  $E = 160V/sm$ ,  $n_i = 2.0 \cdot 10^{13} sm^{-3}$ ,  $\epsilon = 16$ ,  $T = 300K$  bo'lsa, sirdagi potensial sakrashini aniqlang.

4.64. Xona temperaturasidagi xususiy germaniyining sirtiga  $N = 10^9 sm^{-2}$  zichlik bilan donor aralashma adsorbsiyalangan bo'lsa, uning sirtida zonaning egilish kattaligini hisoblang. Donorlarning butunlay ionlashgan deb hisoblang  $e\phi/kT \ll 1$ ,  $n_i = 2.0 \cdot 10^{13} sm^{-3}$ ,  $\epsilon = 16$ .

4.65. Xona temperurasidagi xususiy germaniyining sirtiga  $N = 10^{12} sm^{-2}$  zichlik bilan donor aralashma adsorbsiyalangan bo'lsa, uning sirtida zonaning egilish kattaligini hisoblang. Potensial  $\phi(x)$  ni ikkita to'g'ri chiziqli uchastkalardan

iborat deb oling (7-rasm).


$$\phi = \begin{cases} \phi_0 - E_x, & 0 \leq x \leq \phi_0/E, \\ 0, & x \geq \phi_0/E, \end{cases}$$

Bunda  $E$ -doimiy kattalik. Sirdagi zonalar egriligini katta deb oling:


$$e\phi_0/kT \gg 1 \quad n_c = 2 \cdot 10^{13} sm^{-2}, \\ \epsilon = 16.$$

4.66. Agar yarimo'tkazgich sirtiga dipol momenti  $d = el = 10^{-18} CGSE$  birligi va

zichligi  $N = 10^{12} sm^{-2}$  bo'lgan molekulalar kiritilgan bo'lsa, elektronlar chiqish ishini o'zgarishini hisoblang (8-rasm).



7-rasm



8-rasm

4.67. Hajmida butunlay ionizasiyalangan aralashma bo'lgan yarimo'tkazgich uchun sirdagi zaryad va sirtiy potensial orasidagi bog'lanishini toping.  $\varphi_s = \varphi_s > 0$  deb oling.

4.68. Agar  $n$ - tur kremniyning sirtiga  $N = 10^{11} \text{ sm}^{-2}$  konsentratsyali donorlar adsorbsiyalangan bo'lsa uning sirtida zonalarning egilish kattaligini hisoblang. Hamma donorlar ionizasiyalangan, bunda  $e\varphi_s/kT \gg 1$ ,  $n = 10^{12} \text{ sm}^{-2}$ ,  $\varepsilon = 12$ ,  $T = 300K$

4.69. Agar sirdagi zonalar  $e\varphi_s = 10kT$  ga egilgan bo'lsa,  $n$ - turli germaniyning sirtidagi zaryadni hisoblang. Hajmdagi donorlar butunlay ionizasiyalangan,  $T = 300K$ ,  $n = 10^{12} \text{ sm}^{-2}$ ,  $\varepsilon = 16$ . Ushbu zaryadni hosil qilayotgan akseptor shahlarning konsentratsyasini aniqlang. Akseptorlarni butunlay ionizasiyalangan deb hisoblang.

4.70. Agar akseptor molekulalarning adsorbsiyasi natijasida energetik zonalar 0.25eV ga egilgan bo'lsa, hajmdagi barcha aralashmalar ionizasiyalangan kovakli yarimo'tkazgich uchun sirtiy o'tkazuvchanlikni taqriban hisoblang;  $n = 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ ,  $\varepsilon = 12$ ,  $\mu_p^* = 10^3 \text{ sm}^2/V \cdot s$ , temperatura xona temperaturasiga teng.

4.71. Agar sirtiy o'tkazuvchanlik  $G = 10^{-7} \text{ sm}^{-1}$  bo'lsa, xususiy o'tkazuvchanli yarimo'tkazgichni sirtiy potensialini aniqlang. Yarimo'tkazgichning hamma joyida  $e\varphi_s/kT \ll 1$  ( $\varphi_s > 0$ ) deb oling;  $\mu_n^* = \mu_n = 3800 \text{ sm}^2/V \cdot s$ ,  $b = 2.1$ ,  $\varepsilon = 16$ ,  $n = 2.0 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ ,  $T = 300K$


4.72. Agar elektron yarimo'tkazgichning sirtiga normal ravishda  $E = 5 \cdot 10^3 \text{ V/sm}$  elektr maydon qo'yilgan va bunda sirtiy o'tkazuvchanlik  $10^{-6} \Omega^{-1}$  bo'lsa, sirtiy holatlardagi zaryadni aniqlang. Yarimo'tkazgichning hamma joyida  $e\varphi_s/kT \ll 1$ ,  $n = 5 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ ,  $\varepsilon = 16$ ,  $\mu_n^* = \mu_n = 3800 \text{ sm}^2/V \cdot s$ ,  $T = 300K$  deb oling. Yarimo'tkazgichdagi hamma donorlarni butunlay ionizasiyalangan deb oling.

4.73. Agar yarimo'tkazgich hajmidagi denor aralashma, ekranlash uzunligidan katta masofalarda to'la ionlashgan bo'lsa,  $N$  sirtiy konsentratsyali donor molekulalarning adsorbsiyasida  $n$ - turli yarimo'tkazgichdagi sirtiy potensialni aniqlang:  $N_d = n = 3 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ ,  $\varepsilon = 16$ ,  $T = 300^{\circ}K$  ikki xil holni qarab chiqing:

a)  $N = 10^9 \text{ sm}^{-2}$ , bunda  $e\varphi_s/kT \ll 1$  deb hisoblang, bunda  $\varphi_s = \varphi_{i=0}^1$ ,

b)  $N = 3 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-2}$ , bunda  $e\varphi_s/kT \gg 1$ .

4.74. Agar sirtiy potensial  $|\varphi_s| = 0.25V$  bo'lsa, yarimo'tkazgichda manfiy zaryadlarning sirtiy zichligini aniqlang. Yarimo'tkazgich ichidagi akseptorlarni (erkin uzunligidan katta masofalarda) butunlay ionizasiyalangan deb oling.



$$p = 3 \cdot 10^4 \text{ sm}^{-3}, \varepsilon = 16, T = 300K.$$

4.75. Uzunligi va kengligi qalinligidan  $2a = 0,5 \text{ mm}$  dan ancha katta bo'lgan yupqa va uzun plastinka uchun sirtiy rekombinasiya tezligi  $s$  ni aniqlang. Rekombinasiya tezligi plastinkani ikkala tamoni uchun bir xil. Nomuvoranatli zaryad tashuvchilarining effektiv yashash vaqtisi  $\tau_1 = 125 \text{ mks}$ , qalin narmuna uchun o'lchangan hajmiy yashash vaqtisi  $\tau_p = 250 \text{ mks}$ ,  $s_a/D_p \ll 1$  shartdan foydalaning.

4.76. Yupqa plastinkaning yuqori yog'idagi sirtiy rekombinasiya tezligi  $s_1$  ni aniqlang. Uning uzunligi va kengligi qalinligi  $2a = 0,2 \text{ mm}$  dan ancha katta,  $s_1 \gg s_2$ , bunda  $s_2$  – paski yog'ning sirtiy rekombinasiya tezligi. Plastinkadagi nomuvoranatli zaryad tashuvchilarining effektiv yashash vaqtisi  $\tau_1 = 20 \text{ mks}$ , hajmiy yashash vaqtisi  $\tau_p = 100 \text{ mks}$ .  $s_a/D_p \ll 1$  shartdan foydalaning.

4.77. Sirtiy rekombinasiya tezligi  $s$  ning sirtiy potensial  $u_s$  ga bog'liqligini toping (9-rasm). (3.17) ga asosan,  $s = \frac{u_s}{\Delta n}$ , bunda  $u_s = u_{p+} - u_{n-}$ ,  $\text{sm}^2$  sirdagi elektron va kovaklar tutilishini absolut maromi. Rekombinasiyada qatnashuvchi sirtiy markazlar zichligi  $N_t$ , energiyasi  $E_t$ ,  $\Delta p = \Delta n$  hajmiy zaryad sohasiga yaqin joydagisi ( $x = x_1$ ) ortiqcha zaryad tashuvchilar konsentratsyasi. Injeksiya darajatsini yuqori emas ( $n_0 \gg \Delta p$ ) hamda yarimo'tkazgichni aynimagan va statsionar sharoitda deb hisoblang.

4.78. Agar sirtiy rekombinasiya tezligi  $s(\varphi_s)$   $e\varphi_s = 1,1kT$  da maksimumga erishsa, oldingi masala shartidagi hol uchun elektron va kovaklarning tutilish kesimlarining nisbatini aniqlang.

## 6. Yarimo'tkazgichdagi termo elektr yurituvchi kuch (EYuK)

Bir turdag'i zaryad tashuvchili yarimo'tkazgichning differensial termo-elektr yurituvchi kuchi quyidagi ifoda bilan beriladi:

$$\alpha = \pm \frac{k}{e} \left( \frac{Q^*}{kT} \pm \eta \right), \quad (6.1)$$

Katta musbat  $\eta$  lar uchun (statistikada bunga deyarli butunlay aynigan hol to'g'ri keladi) quyidagi o'rinni:

$$F_j(\eta) = \frac{\eta^{j+1}}{\Gamma(j+2)} \left[ 1 + \frac{\pi^2}{6\eta^2} \frac{\Gamma(j+2)}{\Gamma(j)} + \dots \right] \quad (I.3)$$

Fermi integrali  $F_{1/2}(\eta)$  uchun ko'pincha quyidagi o'rinni:

$$F_{1/2}(\eta) \approx \frac{e^\eta}{1 + 0,27e^\eta}, \quad (I.4)$$

bunda,  $\eta \leq 1,3$  da 3% dan ko'p bo'lмаган xatolik boladi,  $\eta \leq 1$  da taqribiy formula:

$$F_{1/2}(\eta) = \frac{4\eta^{1/2}}{3\sqrt{\pi}} \left( 1 + \frac{1,15}{\eta^2} \right) \quad (I.5)$$

ham 3% dan katta bo'lмаган xatolikni beradi. Shunday qilib, yaqinlashuvchi (I.4) va (I.5) ifodalar kuchli ayniganlikdan to aynimagan hol (klassik hol) gacha intervaldagи qiymatlarni beradi.

Fermi funksiyalari yoki ularning hosilalarini o'z ichiga olgan integralni ba'olashda quyidagi qatordan foydalaniladi:

$$\int_{-\infty}^{\infty} \frac{dG(\varepsilon)}{d\varepsilon} \frac{1}{1 + \exp(\varepsilon - \eta)} = -G(\infty) + G(\eta) + \frac{\pi^2}{6} \frac{d^2 G(\eta)}{d\eta^2} + \dots, \quad (I.6)$$

bu yerda  $G(\varepsilon)$  — energiyaning ixtiyoriv funksiyasi bo'lib, u  $\varepsilon - \eta$  nuqqa atrofida monotondir.

## Yarimo'tkazgich materialning ba'zi parametrlari.

|      | $E_g$ , eV | $m_{dn}/m_0$ | $m_{dp}/m_0$ | $\mu_n(300^0 \text{ K})$ , $\text{sm}^2/\text{V}\cdot\text{sek}$ | $\mu_p(300^0 \text{ K})$ , $\text{sm}^2/\text{V}\cdot\text{sek}$ |
|------|------------|--------------|--------------|--|--|
| Ge   | 0,74       | 0,56         | 0,37         | 3800   | 1800   |
| Si   | 1,12       | 1,08         | 0,59         | 1450   | 500  |
| InSb | 0,22       | 0,013        | 0,4          | 78000  | 750  |
| InAs | 0,43       | 0,023        | 0,41         | 33000  | 460  |
| InP  | 1,40       | 0,067        | ---          | 4600   | 150  |
| GaSb | 0,80       | 0,047        | 0,23         | 4000   | 1400   |
| GaAs | 1,52       | 0,068        | 0,5          | 8800   | 400  |

## Ba'zi fizik kattaliklar

| Kattaliklar                             | Belgisi                       | SI birliklarida  | SGS birliklarida  |
|---|-------------------------------|--|---|
| Elektronning tinchlikdag'i massasi      | $m_e$                         | $9,11 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$                       | $9,11 \cdot 10^{-28} \text{ g}$   |
| Elektronning zaryadi                    | $e$                           | $1,6 \cdot 10^{-19} \text{ Kl}$                        | $4,8 \cdot 10^{-10} \text{ sgse}$                                       |
| Plank doimiysi                          | $h$                           | $6,63 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$           | $6,63 \cdot 10^{-27} \text{ erg}\cdot\text{s}$                          |
| Avagadro soni                           | $N_A$                         | $1,05 \cdot 10^{34} \text{ J}\cdot\text{s}$            | $1,05 \cdot 10^{44} \text{ erg}\cdot\text{s}$                           |
| Boltsman doimiysi                       | $\kappa$                      | $1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J}\cdot\text{K}^{-1}$      | $1,38 \cdot 10^{-16} \text{ erg}\cdot\text{K}^{-1}$                     |
| Gaz doimiysi                            | R                             | $8,31 \text{ J}\cdot\text{mol}^{-1}\cdot\text{K}^{-1}$ | $8,31 \cdot 10^{-16} \text{ erg}\cdot\text{mol}^{-1}\cdot\text{K}^{-1}$ |
| Elektron volt                           | eV                            | $1,6 \cdot 10^{-19} \text{ Kl}$                        | $1,6 \cdot 10^{-12} \text{ erg}$  |
| Bor magnetoni                           | $\mu_B = \frac{e\hbar}{2m_e}$ | $9,27 \cdot 10^{-24} \text{ J}\cdot\text{Tl}^{-1}$     |   |
| Vakuumda yorug'lik tezligi              | s                             | $3 \cdot 10^8 \text{ m/s}^{-1}$                        | $3 \cdot 10^{10} \text{ sm/s}^{-1}$                                     |
| Vakuumning dielektrik singdiruvchanligi | $\epsilon_0$                  | $8,85 \cdot 10^{-12} \text{ F}\cdot\text{m}^{-1}$      |   |
| Vakuumning magnit singdiruvchanligi     | $\mu_0$                       | $1,26 \cdot 10^{-6} \text{ Gn}\cdot\text{m}^{-1}$      |   |
| 1 eV energiyali foton to'lqin uzunligi  | $\lambda_0$                   | $1,24 \cdot 10^{-6} \text{ m}$                         | $1,24 \cdot 10^{-8} \text{ sm}$   |
| 1 eV energiya foton takroriligi         | $v_0$                         | $2,42 \cdot 10^{14} \text{ Gs}$                        | $2,42 \cdot 10^{14} \text{ Gs}$   |

## **Nazorat savollari:**

### **I. Ideal yarimo`tkazgichlarda zaryad tashuvchilarning energetik spektri**

1. Yarimo`tkazgichlarning boshqa moddalardan farq qiluvchi asosiy xususiyati nimadan iborat?
2. Yarimo`tkazgichlarning tashqi ta`sirlarga sezgirligi qanday tushuntiriladi?
3. Yarimo`tkazgichlarning elektr o`tkazuvchanligini temperaturaga bog`liqligini tushuntiring.
4. Yarimo`tkazgichning o`tkazuvchanligini faollashtirish energiyasi nima?
5. Kristaldagi elektronlarning energetik spektri izolyatsiyalangan (yakkalangan) atomdagi elektronlarning spektridan qanday farqlanadi?
6. Taqiqlangan zonaning kengligi elektronning yadroga bog`lanish darajasiga qanday bog`liq?
7. Kristaldagi elektron uchun Shredinger tenglamasini yechishdagi bir elektronli adiabatik yaqinlanishning mohiyati nimadan iborat. Bu yaqinlanishdagi to`lqin va energiya funksiyalarining ko`rinishi qanday?
8. Kristaldagi elektronning potensial funksiyasi yakkalangan atomdagi elektronning potensial funksiyasidan qanday farqlari bor?
9. Ideal kristal panjara nima va u elektronning harakatiga qanday ta`sir qiladi?
10. Kroning-Penni modelining mohiyati nimadan iborat?
11. Elektronning kvaziimpulsi deganda nima tushuniladi?
12. Briyullen zonasasi nima va uni tuzish qoidalari aytинг.
13. Dispersiya qonuni Kristalarda elektronlarning dispersiyasi qonuning asoslari.
14. Effektiv massaning fizik mohiyati nimadan iborat?
15. Effektiv massaning izoenergetik yuza egriligi bilan, tezligi va kvaziimpulsi bilan bog`liqligi.
16. Metall, yarimo`tkazgich va dielektriklarning zona tuzilishlari (strukturalari) orasida qanday farqlar bor?
17. Aralashmali holatning vodorodsimon modeli nimadan iborat?
18. Real yarimo`tkazgichlarning zona strukturasining asosiy qonuniyatlar.
19. Taqiqlangan zonaning kengligi tashqi ta`sirga qanday bog`liq?

### **II. Real yarimo`tkazgichlarda zaryad tashuvchilarning energetik spektri**

1. Xususiy yarimo`tkazgich nima? Xususiy yarimo`tkazgichning faollashtirish energiyasi deb nimaga aytildi?

2. Donor va akseptorlarni tavsiflang. Kirishmali yarimo'tkazgich xususiy o'tkazuvchanlikka egami?
3. Nuqsonning ta'rifni nima? Nuqtaviy, chiziqiy va yassi nuqsonlarga misol keltiring. Rasional nuqson nima?
4. Kristalarda kirishmalarning qattiq eritma yoki suqilma qattiq eritma hosil qilishining geometrik va elektrokimyoiy omillarining mohiyati nimada?
5. Qattiq eritma hosil qiluvchi kirishmalar elektronlarning energetik spektrlarini qanday o'zgartiradi?
6. Elektr o'tkazuvchanlik nazariyasining asoslari nimadan iborat? Uning yutuq va kamchiliklari.
7. Asosiy va asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilar nima?
8. Germaniy va kremniy temir, nikel mis va qalay bilan legirlansa, uning elektr o'tkazuvchanligi qanday turda bo'ladi?
9. Yarimo'tkazgichlarda kirishmalarning amfoterligi deganda nima tushuniladi?
10. A<sup>IV</sup>, A<sup>III</sup> va B<sup>V</sup> kristalari uchun amfoter kirishmalarga misol keltiring. F markazlar nima?
11. Kristalarda vakansiyalarning qanday turlari mavjud? A<sup>IV</sup>, A<sup>III</sup>, B<sup>V</sup> va A<sup>II</sup>B<sup>VI</sup> kristalaridagi vakansiyalarning paydo bo'lishini fizik mohiyati (tabiat) nimadan iborat?
12. Vakansiyalar elektronlarning energetik spektrlariga qanday o'zgartirishlar kiritadi?
13. Tamm sathlari nima? Ularning tabiatini qanday?
14. Dislokatsiyalar nima? Qirrali va vintli dislokatsiyalarning hosil bo'lish tabiatini qanday?
15. Dislokatsiyalarning elektronlarni energetik spektriga ta'siri nimada aks etadi?
16. n- yoki p- turdag'i aynigan va aynimagan yarimo'tkazgichlar uchun elektron va kovaklarning konsentratsyysini grafik usulda tavsiflang.
17. Kuchli aynigan yarimo'tkazgichlarda elektronlar konsentratsyysini temperaturaga bog'liq bo'lmasligini ko'rsating?
18. Aynigan va aynimagan xususiy yarimo'tkazgichlar uchun zaryad tashuvchilar konsentratsyasi formulasini keltiring. Ge va Si uchun T= 300K da n<sub>i</sub> ni toping.
19. Aynimagan yarimo'tkazgichlarning taqiqlangan zonasining kengligi eksperimental qanday aniqlanadi?
20. f(E,T) funksiya zaryad tashuvchilarining qanday xossalalarini tavsiflaydi?
21. Elektronning holatini f(E,T) ning qanday turlari tavsiflaydi?
22. f<sub>n</sub>(E,T) va f<sub>p</sub>(E,T) funksiyalari orasida qanday bog'lanish bor? Aynigan va aynimagan yarimo'tkazgichlar uchun ularning ko'rinishini aniqlang.
23. Germaniy va kremniyda holat zichliklari uchun elektronlarning va kovaklarning effektiv massa formulalarini keltirib chiqaring.

24. 1-2 tartibli Fermi integrali nima va u qanday hisoblanadi?
25. Ruxsat etilgan zonadagi effektiv holatlar soni qanday hisoblanadi?
26. Ruxsat etilgan zonada va aralashmali sathlarda zaryad tashuvchilarning holatlar bo'yicha taqsimoti qanday farq qiladi?
27. Elektroneytrallik tenglamasini umumiy hol uchun yozing va uning ma'nosini tushuntiring.
28. a) Xususiy yarimo'tkazgichlar, b) aynimagan akseptor va donor yarimo'tkazgichlar, v) qisman kompeasirlangan yarimo'tkazgichlar ( $N_d > N_a$  va  $N_d < N_a$ ) uchun Fermi sathini temperaturaga bog'liqligining grafigini ko'rsating.
29. Yarimo'tkazgichga aralashma kiritilishi biian aynishini shart - sharoiti nimadan iborat?
30. Yarimo'tkazgichlardan InAs va Ge ning qaysi biriga uning aynishi uchun ko'proq konsentratsya aralashma kiritilishi kerak? n va p-tur o'tkazuvchanliklarda aynish konsentratsya'larini taqqoslang.
31. Taqsimot funksiyasining fizik ma'nosи?
32. Kimyoviy potensial nima?
33. Fermi sathidan yuqori, pastki va sathga to'g'ri keluvchi energetik sathlarning elektronlar bilan to'ldirilishi qanday?
34. Aynigan elektron gaz deb nimaga aytildi?
35. Xususiy yarimo'tgazgichda kimyoviy potensial qaerda joylashgan?
36. Fermi sathi n- va p-turdag'i yarimo tkazgichlarda taqiqlangan zonaning qaysi qismida joylashgan?
37. Qattiq jismlarda mikro kuchlanishlar vujudga kelishi umumiy shartlari qanday?
38. Ko'p qatlamli qattiq jismlar tuzilmalarida mikro kuchlanishlarning qanday asosiy manbalari mavjud?

### **III. Yarimo'tkazgichlarda kinetik hodisalar**

1. Zaryad tashuvchilarning sochilishi deb nimaga aytildi?
2. Sochilishning effektiv kesimi tushunchasi, uning relaksatsiya vaqtini bilan bog'liqligi.
3. Qanday kattaliklar sochilishning miqdoriy o'chovi bo'ladidi?
4. Zaryad tashuvchilarning harakatchanligi tushunchasiga ta'rif bering.
5. Panjaradagi atomlarning tebranishi qanday ifodalanadi va unda zaryad tashuvchilarning sochilishi qanday tavsiflanadi?
6. Qanday kuchlar: a) Elektr o'tkazuvchanlikni, b) Xoll effektini, v) Termo EYuK ini, s) Issiqlik o'tkazuvchanlikni, d) Nernst-Ettingauzen, Nernst effektlarini vujudga kelishiga olib keladi?
7. Dispersion munosabat S dan qanday ma'lumotlar olish mumkin?
8. Kinetik tenglama usulining mohiyati nimadan iborat?

9. Kinetik hodisa o'rganilganda relaksatsiya vaqtı yaqinlashishining ma'nosi nima?
10. Kirishmasiz (aralashmasiz) yarimo'tkazgichlarda socqilishning qanday mexanizmlari o'rinni?
11. Har xil deffekt (nuqson) larga ega bo'lgan yarimo'tkazgichlarda sochilishning qanday mexanizmlari o'rinni?
12. Debay temperaturasi deb nimaga aytildi?
13. Neytral kirishmalarda (neytral va zaryadlangan) zaryad tashuvchilarining sochilishning fizik mohiyati nimadan iborat?
14. Dislokatsiyalarda zaryad tashuvchilarining sochilishini fizikasi nimadan iborat?
15. Bir necha mexanizmlar baravar qatnashganda relaksatsiya vaqtleri qanday qonun asosida qo'shiladi?
16. Zaryad tashuvchilar konsentratsyasi va Xoll koefitsiyenti qanday munosabatda bog'langan?
17. Issiqlik o'tkazuvchanlik mexanizmi.
18. Qanday termoelektr effektlari bor va ularning fizik mohiyati nimadan iborat?
19. Fononlarning elektronlarni olib ketish effektining mohiyati nimada?
20. Issiqlik o'tkazuvchanlikning panjara o'tkazuvchanlik tashkil etuvchisini hosil bo'lishiiga sabab nimada? Kuchli aynish holatida yarimo'tkazgichlarda elektronlar konsentratsyasi temperaturaga bog'liq bo'lmasligini ko'rsating.
21. Fononlarning socqilish mexanizmlarini sanab bering (izoqlab bering).
22. Optik va akustik fononlar nima? Fononlarning taqsimot funksiyasi.
23. Normal jarayon va tarqalgan (razbros) jarayonlari nima?
24. Deformasion potensial usulining mohiyati nimadan iborat?
25. Optik va akustik fononlardagi sochilishda relaksasiya vaqtı energiya qanday bog'liq?
26. Otkazuvchanlik effektiv massasining fizik ma'nosi.
27. Zonalar aro va qatlamlar aro (mejdolinniy) socqilish tushunchalari
28. Har xil sochilish mexanizmlari uchun zaryad tashuvchilarining harakatchanligini temperaturaga bog'liqligi.
29. Yarimo'tkazgichlar uchun tok va elektr o'tkazuvchanlik ifodalari magnit maydon mavjud bo'lгanda qanday o'zgaradi?
30. Qanday termomagnit hodisalarni bilasiz?

#### **IV. Yarimo'tkazgichlarda optik hodisalar**

1. Yorug'likning yarimo'tkazgichdagi elektronlar bilan qanday tasirlashish turlari bor?
2. To'g'ri (bevosita) va bilvosita (nepryamoy) optik o'tishlar deb nimaga aytildi?

3. Qanday o'tishlar ruxsat etilgan (taqiqlanmagan) va ruxsat etilmagan o'tishlar deyiladi?
4. Burshteyn siljishi deb nimaga aytildi?
5. Yorug'likning kristal panjara bilan ta'sir mexanizmi qanday?
6. Germaniy va kremniy kristalarida kislorod aralashmasining mavjudligi tufayli yorug'lik yutilishida namoyon bo'ladijan yutilish spektrlari qanday to'lqin uzunliklarida kuzatiladi?
7. Aralashma (kirishma) atomlari tomonidan yorug'likning yutilish tabiatini qanday?
8. Eksiton nima?
9. Yorug'likning qaysi to'lqin uzunliklari intervalida yorug'likning eksiton yutilishi kuzatiladi?
10. Yorug'likning qaytishini tadqiqot qilish asosida yarimo'tkazgichning qanday xossalari haqida ma'lumot olish mumkin?
11. Faradey effektining mohiyati nimada?

#### V. Yarimo'tkazgichda zaryad tashuvchilarining rekombinasiyası

1. Elektron-kovak juftini generatsiya jaruyoni deb nimaga aytildi? Ularning qanday usullari mavjud?
2. Zaryad tashuvchilarining injeksiyası degan tushunchani mu'noz nimada?
3. Zaryad tashuvchilarining rekombinatsiya juruyoni deb nimaga aytildi?
4. Zaryad tashuvchilarining generatsiya va rekombinatsiya tezliklarini ta'riflang.
5. Zaryad tashuvchilarining yashash vaqtiga ta'rif bering.
6. Zaryad tashuvchilarining stasionar va nostasionar yashash vaqtleri nimalar bilan farqlanadi?
7. Zaryad tashuvchilarining qanday holatiga muvozanatsiz holat deyiladi?
8. Yopishish effektining mohiyati nimada?
9. Rekombinasiyaning qanday turlari mavjud?
10. Rekombinasiyaning qanday mexanizmlari mavjud? Ularning farqlari nimalarda namoyon bo'ladi?
11. Nurlanish yashash vaqtining qiymati yarimo'tkazgichning legirlanish darajasiga bog'liq holda qanday o'zgaradi?
12. Qanday yarimo'tkazgichlarda nurlanish zonalar aro rekombinasiyaning exti nolligi eng katta?
13. Zonalar aro to'lqinlanish rekombinasiyaning mohiyati nimadan iborat
14. Sirtiy rekombinasiya nima?
15. Rekombinasiya kesim yuzasi nimani tavsiflaydi?
16. Diffuzion uzunlik tushunchasining fizik ma'nosи qanday? U zaryad tashuvchilarining yashash vaqtini bilan qanday bog'langan?

17. Zaryad tashuvchilarning ortiqcha konsentratsyясining ixtiyoriy qonuniyat bilan kamayishida yashash vaqtı tushunchasi qanday kiritiladi?
18. Fermi sathining holati zaryad tashuvchilar yashash vaqtiga qanday ta'sir qiladi?
19. Shokli-Rid nazariyasiga asosan aniqlangan zaryad tashuvchilarini o'rtacha yashash vaqtı yarimo'tkazgichga uncha katta bo'limgan konsentratsyada donor kiritilsa o'zgaradimi?
20. Aralashmalarni zaryad tashuvchilarining yashash vaqtiga ta'siri qanday aniqlanadi?
21. Stasionar sharoitda "ortiqcha" zaryad tashuvchilarning fazoviy taqsimoti qanday?
22. Rekombinasiya sathining energetik holati eksperimental qanday aniqlash mumkin?
23. Asosiy bo'limgan zaryad tashuvchilarning diffuzion uzunligi nimani tavsiflaydi va u eksperimental qanday aniqlanadi?
24. Zaryad tashuvchilarning ekskluziya, ekstraksiya va akkumulyatsiya jarayonlari nimadan tashkil topgan?

## VI. Yarimo'tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar.

1. Fotoo'tkazuvchanlik hodisasining moziyati nima?
2. Fotoo'tkazuvchanlik yorug'likning yutilishi bilan qanday bog'langan?
3. Fotoo'tkazuvchanlikning qizil chegarasi nima?
4. Fototermik ionizasiyaning mexanizmi qanday?
5. Fotoo'tkazuvchanlik vujudga kelishida eksitonlar qatnashadimi?
6. Fotosezgirlikning qanday ta'riflari bor?
7. Mono - va biqutbli aralashmali fotoo'tkazuvchanliklarning farqi nimada?
8. Fotoo'tkazuvchanlikda kirishmalar sathiarining to'ldirilishi qanday ro'o'ynaydi?
9. Yarimo'tkazgichning lyuks-amper xarakteristikasi deb nimaga aytildi? U qanday parametrlar orqali tavsiflanadi?
10. Fotovoltik hodisa deb nimaga aytildi?
11. Fotovoltik hodisa ro'y berishi uchun qanday shart - sharoitlar bajarilishi kerak?
12. Hajmiy foto EYuK ning tabiatini tushuntiring.
13. Dember effektining mohiyati nimadan iborat?
14. Fotomagnit EYuK ning vujudga kelish mexanizmi qanday?
15. Fotolyuminessensiya hodisasining mohiyati nimadan iborat?
16. Luminessensiyaning qanday turlari bor?
17. Luminessensiya intesivligi qanday omillarga bog'liq?

## VII. Kuchli elektr maydonida yarimo'tkazgichlar.

1. Kuchsiz elektr maydoni kristalardagi elektronlarning tezligini qanday qilib o'zgartiradi?
2. Kritik maydon deb nimaga aytildi?
3. Sochilish mexanizmi zaryad tashuvchilarning harakatchanligini elektr maydon kuchlanganligiga bog'liqligiga qanday ta'sir qiladi?
4. Elektron temperatura tushunchasining fizik ma'nosini tushuntiring. Qanday zaryad tashuvchilar "qaynoq" tashuvchilar deyiladi?
5. Kuchli elektr maydonlarida nima uchun Om qonuni bajarilmay qoladi. Yarimo'tkazgichda qanday effektlar Om qonunining buzilishiga olib kelishi mumkin?
6. Zaryad tashuvchilarning konsentratsyasiiga kuchli elektr maydonining ta'siri qanday tajribalar asosida isbot qilingan?
7. Kuchli elektr maydonining termoelektrik ionizatsiyaga ta'sir mexanizmi qanday?
8. Termoelektrik ionizasiya va tunnel effektlarni tajribada qanday farqlash mumkin?
9. Kuchli maydonning to'qnashuv ionizasiyasiga ta'sir mexanizmi qanday?
10. Qanday maydonlarda yarimo'tkazgichlarda termoelektrik ionizatsiya, tunnel effekt, to'qnashuv ionizasiysi, elektr teshilish kuzatiladi?
11. Frans-Keldish effektining mohiyati nimadan iborat?
12. Tok noturg'unligining qanday mexanizmlari bor va ularning mohiyati nimadan iborat?
13. Ganna effektining mohiyati nimadan iborat?

## VIII. Kontakt hodisalar

1. Yarimo'tkazgichlarning yuzasida energetik zonalarning egrilanishi qanday tushuntiriladi?
2. Kontakt hodisalarining namoyon bo'lishi nimalarga bog'liq?
3. Elektronning chiqish ishi deb nimaga aytildi?
4. Kontakt potensiallar farqi deb nimaga aytildi?
5. Metall- yarimo'tkazgich kontakti bo'lganda yarimo'tkazgich yuza qatlamida zora strukturasi qanday o'zgaradi?
6. Metall va yarimo'tkazgich orasidagi potensiallar farqi nimalar bilan aniqlanadi?
7. Ekranlashishning Debay uzunligi nima?
8. Maydon effektining mohiyati nimada?
9. Nima uchun metall-yarimo'tkazgich kontaktida kontakt maydon yarimo'tkazgichga kiradi, metallga umuman kirmaydi?

10. Berkituvchi va antiberkituvchi (antizapirayushiy) qatlamlar deb nimaga aytildi?
11. Metall-yarimo tkazgich kontaktida tokning to'g'rilanish mexnizmini tushuntiring.
12. p-n o'tish nima? Uning metall-yarimo tkazgich kontaktidan farqi nimada?
13. p-n o'tishning VAX.
14. p-n o'tishlarni qanday klassifikasiyalash mumkin?
15. Omik kontaktni tafsiflang. Omik kontaktning qanday turlari bor?
16. Geter o'tish odatiy gomogen o'tishdan qanday farq qiladi?
17. p-n o'tishni tashqi kuchlanish manbaiga ulaganda qaysi yo'nalishni musbat yo'nalish deb hisoblash mumkin?
18. Sirt holatining kontakt hodisalariga ta'siri?

### **IX. Yarimo tkazgichlarda magait hodisalar**

1. Bir elektronli atomning natijaviy magnit momenti nimalar bilan aniqlanadi?
2. Ko'p elektronli atomning natijaviy magnit momenti nimalar bilan aniqlanadi?
3. Qattiq jismlarda magnit atomlarini tartiblashuvining qanday turlari mavjud?
4. Paramagnitning magnit qabul qiluvchanligi temperaturaga qanday bog'liq? Magnit maydonigachi?
5. Almashinuv o'zaro ta'sirining mohiyati nimada?
6. Yarimo tkazgichlar uchun magnetizmning qaysi turi xarakterlidir?
7. Yarim magnetik va magnetik yarimo tkazgichlar nomagnetik yarimo tkazgichlardan qanday farqlanadi?
8. Landau sathlari nima?
9. Yarimo tkazgichlarda ossillyatsiya hodisasining tabiatini tushuntiring.
10. Yarimo tkazgichlarda mavjud bo'lgan va lokalizatsiyalashgan magnit momentlari qanday effektlarda namoyon bo'ladi?
11. Tajribada rezonans hodisalari nimalarda namoyon bo'ladi?
12. Qanday rezonans hodisalar mumtoz fizika nuqtai nazaridan tushuntiriladi?
13. Qanday rezonans hodisalar kvant mexanikasi asosida tushuntiriladi?
14. Qanday o'zaro ta'sirlar YaMR ga olib keladi?
15. Qanday o'zaro ta'sirlar EPR ga olib keladi?
16. Qanday o'zaro ta'sirlar YaKR ga olib keladi?
17. Siklotron rezonansning YaKR va EPR dan prinsipial farqi nimadan iborat?
18. Yarimo tkazgichlar tadqiqotida YaMR, YaKR va EPR qanday maqsadiaro ishlatalidi?
19. Yarimo tkazgichlar tadqiqotida siklotron rezonans qanday maqsadilar qo'llaniladi?
20. Magnetik va nomagnetik yarimo tkazgichlarning zona strukturalari qanda farq qiladi? Bu farqlar qanday effektlarga olib keladi?

## X. Tartiblanmagan moddalarning yarimo'tkazgich xususiyatlari

1. Strukturada yaqin va uzoq tartib deb nimaga aytildi?
2. Qanday moddalar tartiblanmagan moddalarga tegishli?
3. Tartiblanmagan moddalar turlarini aytинг?
4. Kuchli va kuchsiz legirlangan (kirishmali) yarimo'tkazgichlarning shartlarini mohiyati nimada?
5. Holat zichligi bog'lanishida "dumlar" nima?
6. "Gofrirlangan (qat-qat burmalangan) zonalar" nima?
7. Kirishmalarning tasodisiy taqsimotida potensial chuqurlik va "bukri"larning fizik mohiyati ni'madan iborat?
8. Kuchli legirlangan va kuchli kompensirlangan yarimo'tkazgichlarda aralashma (kirishma) potensialini fluktuatsiyasi qanday qilib paydo bo'ladi?
9. Qanday fizik hodisalarda kirishma potensialini fluktuatsiyasi o'rinni bo'ladi (ahamiyatga molik bo'ladi)?
10. Amorf yarimo'tkazgichlarning kuchli legirlangan kristal yarimo'tkazgichlarga o'xshashligi nimada va nimalari bilan farq qiladi?
11. Fluktuasion sathlar deb nimaga aytildi?
12. Mott o'tishi nima?
13. Amorf yarimo'tkazgichlarda vodorod qanday rol o'ynaydi?
14. Suyuq, eritilgan yarimo'tkazgichlarda yarimo'tkazgich xossalaring tabiat qanday?
15. Shishasimon yarimo'tkazgichlarda yarimo'tkazgich xossalaring tabiat qanday?

## XI. Yarimo'tkazgichlarning asosiy parametrlarini o'lchash metodlari

1. Yarimo'tkazgichlarning qanday parametrlari fundamental parametrlar deyiladi?
2. Yarimo'tkazgichlarning qanday parametrlari xarakteristik (tavsifiy) parametrlar deyiladi?
3. Ishlab chiqarilgan yarimo'tkazgich materiallarning pasportida qanday ko'rsatkichlar aks ettiriladi?
4. Solishtirma qarshilikni o'lchashning to'rt zondli usulining tamoyili ni'madan iborat?
5. To'rt zondli usul bilan solishtirma qarshilik o'lchaganda qirra (chegara) effekti qanday qilib hisobga olinadi?
6. Solishtirma qarshilik zond usulida o'lchanganda zondlar qanday materiallardan tayyorlanadi?
7. To'rt zondli usulning eng katta xatoligi nima bilan aniqlanadi?

8. Van-der-Pauve metodining mohiyati nimada?
9. Ikki zondli usulning eng katta xatoligi nima bilan aniqlanadi?
10. Ikki zondli solishtirma qarshilikni o'chash usulining mohiyati nimadan iborat?
11. Harakatlanuvchi zond usuli qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
12. Kontaktsiz solishtirma qarshilikni o'chash usulining mohiyati nimada?
13. Kontaktsiz solishtirma qarshilikni o'chash usulining eng katta xatoligi nima bilan aniqlanadi?
14. Xoll effektining mohiyati nimada? Elektronlar va kovaklar qanday oqadi?
15. Xoll effektini o'chashda qanday ma'lumotlar olinadi?
16. Xoll koefitsiyentini aniqlashda parazit EYuK qanday bartaraf etiladi?
17. Xoll koefitsiyentini to'g'ri o'chash uchun namunaga qanday talablar qo'yiladi?
18. A<sup>IV</sup> va A<sup>III</sup> B<sup>V</sup> turdag'i yarimo'tkazgichlarda donorlar va akseptorlar konsentratsyясини alohida aniqlash tamoyili nimadan iborat?
19. Zaryad tashuvchilarning yashash vaqtini aniqlashda o'tkazuvchanlikni modulyasiyalash usulining tamoyili nimadan iborat?
20. Foto'o'tkazuvchanlikning so'nish usulining mohiyati nimada?
21. Qanday hollarda zaryad tashuvchilarning yashash vaqtini fazali usul orqali aniqlanadi va uning tamoyili nimadan iborat?
22. Germaniydag'i zaryad tashuvchilarning diffuzion uzunligi bevosita qanday aniqlanadi?
23. Statsionar foto'o'tkazuvchanlik metodi va FEM-effektlarning tamoyilini tushuntiring?
24. Yarimo'tkazgichli moddalarning optik xususiyatlarini o'rGANISHDA qanday yorug'lik manbalari va yorug'lik qabul qilgichlari qo'llaniladi?
25. Quyidagilarni aniqlash uchun qanday eksperimentlar o'tkazilishi kerak?
  - A). Zaryad tashuvchilarning sochilish mexanizmi,
  - B). Elektroniarning effektiv massasi,
  - C). Ruxsat etilmagan (taqiqlangan) zona kengligi,
  - D). Yarimo'tkazgich moddaning tozaligi.

## XII. Epitaksial pardalarning parametrlarini o'chash usullari

1. Epitaksial qatlama qalinligini o'chash uchun qanday usullar qo'llaniladi?
2. Yupqa qatlamlarning qalinligini o'chashning interferension usulining mohiyati nimada?
3. Epitaksial qatlarning solishtirma qarshiligini zondlar usuli bilan aniqlash mumkinmi?
4. Elipsometriya usulining mohiyati nimadan iborat?
5. Qanday qilib sirqish usuli bilan solishtirma qarshilikni o'chash mumkin?

6. Sig'imlar usuli bilan yarimo'tkazgichlarning xususiyatlari haqida qanday ma'lumotlar olish mumkin?
7. Kirishmali sathlarni sig'im spektroskopiyasi qanday amalga oshiriladi?
8. Bir jinsli bo'lmaslikni elektron - zond usulida tadqiqot qilishning mohiyati nimada?
9. Ion mikroanalizi qanday amalga oshiriladi?
10. LRSA (lokal rentgenostruktura analizi), MKLA (mikrokatodolyuminessent analiz), IMA (ion mikro analiz) usullarining sezgirligi va o'lchash xatoliklari qanday?

### XIII. Yarimo'tkazgichli radio va elektr asboblari

1. Yarimo'tkazgich materiallarning qo'llanilish sohalarini qanday klassifikasiyalash mumkin?
2. Kuchli yarimo'tkazgichli diodiar qanday maqsadlarga mo'ljallangan?
3. Boshqariluvchi yarimo'tkazgichli diodlarning strukturasi, voltamper xarakteristikasi va uning ishlash tamoyili qanday?
4. Kuchli yarimo'tkazgichli diodlarni tayyorlash uchun qanday yarimo'tkazgichli materiallar ishlataladi?
5. Stabilitronning ishlash tamoyilini tushuntiring.
6. Stabilitronning sifati qanday parametrlar orqali tavsiflanadi?
7. Stabilitron ishlab chiqarilishi uchun qanday yarimo'tkazgich materiallar ishlataladi?
8. Impulslri diodlarni tayyorlash uchun qanday yarimo'tkazgichli materiallar ishlataladi?
9. Yuqori chastotali detektorlarni tayyorlash uchun qanday yarimo'tkazgichli materiallar ishlataladi?
10. p-n-o'tishning sig'imi nimalarga bog'liq?
11. Varikapning ishlashi p-n-o'tishning qaysi xossasiga asoslangan?
12. Varikap qanday materiallardan tayyorlanadi?
13. Tunnel diodning ishlash tamoyilini tushuntiring.
14. Tunnel diodlarga qo'yilgan talablar qaysi yarimo'tkazgich materiallarni ishlatalish asosida amalga oshiriladi?
15. Tranzistorning ishlash tamoyilini tushuntiring.
16. Tranzistorlarni ishlab chiqarish uchun (tayyorlash uchun) qanday yarimo'tkazgich materiallar ishlataladi?
17. Zaryad bog'lanishning tamoyili nimadan iborat?
18. Integral sxemalar deb nimaga aytildi?

### XIV. p-n- o'tishli foto va termoelektrik asboblar

1. Yarimo'tkazgichli photoclementning ishlash tamoyilini tushuntiring.

2. Qanday kattaliklar fotoelementlarning asosiy xarakteristikalari bo'lib hisoblanadi?
3. Quyosh batareyalari qanday materiallardan yasaladi?
4. Fotoqarshilikning ishlashi qanday fizik hodisaga asoslangan?
5. Fotodiod va quyosh batareyasining ishlash tamoyillari nima bilan farq qiladi.
6. Yadro zarrachalarini qayd qilishni p-n o'tishning qanday strukturasi amalgamoshiradi?
7. Yadro zarrachalarining detektorlari qanday materiallardan yasaladi?
8. Yarimo'tkazgichli yorug'lik manbai va lazerlarning ishlash tamoyili nimalardan iborat?
9. Yarimo'tkazgichli yorug'lik manbalarini tayyorlash uchun qanday yarimo'tkazgich materiallar istiqbolli hisoblanadi?

#### XV. p-n- o'tishsiz foto va termoelektrik asboblar

1. Termoelektrik asboblarda ishlatiladigan yarimo'tkazgich materiallarning aslligi qanday fizik kattaliklar bilan aniqlanadi?
2. Termoelektrik asboblar ishlab chiqarishda qanday yarimo'tkazgich materiallar eng yaroqli deb ataladi?
3. Yarimo'tkazgichli tenzometrning ishlash tamoyili qanday fizik hodisaga asoslangan?
4. Yarimo'tkazgichli tenzometrlarning ishlab chiqarishga qanday materiallar yaroqli?
5. Xoll datchigining sezgirligi deb nimaga aytildi va uni yarimo'tkazgich materialning qaysi xossalari belgilaydi?
6. Xoll datchigi qanday materiallardan tayyorlanadi?

#### XVI. Mikroelektronika va integral sxemalar

1. Zamonaviy fan va texnikada mikroelektronikaning o'rni.
2. Yarimo'tkazgichli, pardali, gidrid va jamlangan mikrosxemalar va ularning tuzilishi.
3. Integral mikrosxemalar tavsifnomalari va parametrlari.
4. Yarimo'tkazgich va pardali mikrosxemalar tayyorlash texnologiyasining xususiyatlari.
5. Yarimo'tkazgichlar va dielektrik materiallarning yupqa qatlamlarini olish metodlari.
6. n-p-n turdag'i integral tranzistorlar.
7. p-n-p turdag'i integral tranzistorlar.
8. Integral rezistorlar va kondensatorlar turlari va ularning ishchi tavsifnomalari.
9. Integral mikrosxemalar komponentlarini izolyasiyalash metodlari.
10. Raqamli va analogli mikrosxemalar.

11. Tranzistor kalitlar. Tranzistor kalitlarning turlari.
12. Triggerlar va ularning turlari.
13. Kuchaytirgich kaskadlar. Kuchaytirgich kaskadlar ish maromlari va ishchi tavsifnomalarini hisoblash.
14. Biqutbiy va maydonli tranzistorlarda kuchaytirgich kaskadlar.
15. Emitter takrorlagichlar.
16. Differensial kuchaytirgichlar.
17. Operasion kuchaytirgichlar va ularning asosiy parametrlari.
18. Mantiqiy elementlar va ularning ishlash tamoyillari.
19. Mantiqiy elementlarni qo'llash.
20. Doimiy xotirlovchi qurilmalar. Asosiy parametrlar va tavsifnomalar.
21. Operativ xotirlovchi qurilmalar.
22. Katta integral mikrosxemalar.
23. Mikrominiaturlashning fizik cheklovleri.
24. Zaryad aloqali asboblar ishlashning fizik asoslari.
25. Zaryad aloqali asboblarning rivojlanish istiqbollari.

## XVII. Ko'p qatlamlili yarimo'tkazgich strukturalar

1. Ko'p qatlamlili yarimo'tkazgich strukturalar va ularning turlari.
2. Metall-yarimo'tkazgich-metall strukturalar. Metall-yarimo'tkazgich-metall strukturalarning voltamper tavsifnomalari.
3. Metall-yarimo'tkazgich-metall strukturalarning sig'imiy xossalari.
4. Metall-yarimo'tkazgich-metall strukturalariga temperaturaning ta'siri.
5. Metall-yarimo'tkazgich-metall strukturalarning optik xossalari.
6. Metall-yarimo'tkazgich-yarimo'tkazgich strukturalar. Metall-yarimo'tkazgich-yarimo'tkazgich strukturalar voltamper tavsifnomasi.
7. Metall-yarimo'tkazgich-yarimo'tkazgich strukturalarning sig'imiy xossalari.
8. p-i-p, n-i-n, p-i-n va n-i-p strukturalar.
9. p-i-n va n-i-p strukturalarning optik xossalari.
10. Dielektrik qatlamlili triod strukturalarning ishlash prinsiplari.
11. Dielektrik qatlamlili triod strukturalarning qo'llanish sohalari.
12. Dielektrik qatlamlili triod strukturalarning energetik zonaviy diagrammalari.
13. To'rt qatlamlili strukturalarning ishlash prinsiplari va ularning asosiy tavsifnomalari.
14. To'rt qatlamlili strukturalarning turlari.
15. To'rt qatlamlili strukturalarning VAX hisoblash.
16. Ko'p qatlamlili ko'chish datchiklari.
17. Ko'p qatlamlili namlik datchiklari.
18. Ko'p qatlamlili yoritish va bosim datchiklari.
19. Ko'p qatlamlili ionlovchi nurlanish datchiklari.
20. Ko'p qatlamlili temperatura datchiklari.

## XVIII. Yarimo`tkazgichlar asosidagi quyosh elementlari va batareyalari

1.

1. Qanday energiya manbalari mavjud?
2. Qayta tiklanuvchi energiya turlariga qanday energiyalar kiradi?
3. Qaysi turdag'i energiyalar qayta tiklanmaydiganlariga kiradi?
4. Quyosh energiyasini qaysi ko`rinishdagi energiyalarga effektiv aylantirish mumkin?
5. Quyosh nurlanishi asosida nimha yotadi?
6. Quyosh nurlanishi deb qanday nurlanishga aytadi?
7. Qanday nurlanishlar to`liq Quyosh nurlanishi deyiladi?
8. Quyosh nurlanishining tarkibiy qismlari.
9. Quyosh elementini tayyorlashda yarimo`tkazgichning qaysi parametrlari asosiy hisoblanadi?
10. Quyosh elementining ishlash fizikaviy tamoyili.
11. Quyosh elementining asosiy parametrlari.
12. Ko`p qatlamlı Quyosh elementlaridagi yo`qotish turlari.
13. Quyosh nurlanishining imitatorlari va ularning funksiyasi.
14. Ochiq kosmosda ishlataladigan fotoelektrik batareyalarga qo`yiladigan asosiy talablar.
15. Quyosh elementining F. I. K.
16. Quyosh elementining radiasjon chidamliligi?
17. Quyosh elementi voltamper xarakteristikasining ifodasi.
18. Metall-yarimo`tkazgichdagi potesial bar'erning tabiat.
19. Metall-yarimo`tkazgichning ideal kontakti uchun voltamper xarakteristika ifodasi.
20. Quyosh elementi qarshiligini shuntlash va unig yuzaga kelish sababi.
21. Metall-yarimo`tkazgich kontakti orqali tok o'tish mexanizmi.
22. Metall-yarimo`tkazgich kontakti elektr maydoni va maydon potensialining taqsimlanishi.
23. Metall-yarimo`tkazgich kontakti VAX si.
24. Fotoelektrik batareyalarning asosiy parametrlari.
25. Quyosh elementlari xarakteristikalariga temperaturaning ta'siri.

2.

1. Quyosh elementlari tayyorlashda ishlataladigan materialarning yuzasi mikrorelefini analiz qilish usullari.
2. Yupqa qatlamlı quyosh elementlarining afzalligi va ularni kamchiligi
3. Yarimo`tkazgichlarda yorug`lik yutilishining tabiat.
4. Yarimo`tkazgichlarda yorug`likning xususiy va aralashmali yutilishi.
5. Geteroo`tish asosidagi quyosh elementlari.
6. Kaskadli quyosh elementlari.
7. Aralashmali va xususiy yarimo`tkazgichlar.
8. Kristalarda yorug`likning yutilish mexanizmi.
9. Yutilishning spektrli xarakteristikalari.
11. Dember samarası.

12. Fotogalvanik effekt.
  13. Geteroo'tishli quyosh elementlarining afzalligi va kamchiligi.
  14. Yarimo'tkazgichlardagi nuqsonlarning quyosh elementini tavsifiga ta'siri.
  15. Quyosh elementining asosiy xarakteristikasi (VAX)
  16. Yarimo'tkazgichning xususiy fotoo'tkazuvchanligi.
  17. Foterezistorlar, fotodiодлар.
  18. Erkin zaryad tashuvchilar tomonidan optik nurlanishning yutilishi.
  19. Yarimo'tkazgichlardagi fotoelektrik effektlar.
  20. Zonalararo to'g'ri va teskari optik o'tishlar.
  21. Yarimo'tkazgichlarning issiqlik sig'imi va issiqlik o'tkazuvchanligi.
  22. Quyosh elementlari uchun FIK tushunchasi.
  23. Yarimo'tkazgichlardagi radiasision defektlar.
  24. Elektron-kavkli o'tishning olish metodlari.
- 3.
1. p-n o'tish elektr xarakteristikasiga yuzaning ta'siri.
  2. Fotografiya to'g'risida asosiy tushunchalar.
  3. p-n o'tishlar planar konstruksiyalarining quyosh elementlarida ishlatalishi.
  4. Kvant chiqishi va yog'ish koefitsiyenti.
  5. Quyosh elementlarining shuntlovchi va ketma-ket qarshiliklari.
  6. Quyosh elementlarining planar konstruksiyalar.
  7. Optik va rekombinasion yo'qotishlar mexanizmi.
  8. Quyosh elementlari konstruksiyalarini optimallashtirishda kerak bo'ladigan xususiyatlar.
  9. Yuqori samarali zamонавиј quyosh elementlari.
  10. Vertikal p-n o'tishli Quyosh elementlari.
  11. Ikki tomonlama sezgirlikka ega bo'lgan Quyosh elementlari.
  12. Yupqa kremniy asosidagi Quyosh elementlari.
  13. MDYa, MOYa, YAOYa-strukturali quyosh elementlari.
  14. Amorf kremniy asosidagi yupqa qatlamlili quyosh elementlari.
  15. Issiqlik hosil qiluvchi Quyosh elementlari.
  16. Quyosh elementlari FIK ni oshirish usullari.
  17. Erda joylashtiriladigan Quyosh elementlari va fotoelektrik stansiyalar.
  18. Elektr energiyasini saqlash usullari.
  19. Yarimo'tkazgichlar fotosezgir parametrlarini o'lhash usullari.
  20. Quyosh elementi yarimo'tkazgichdagi o'tkazuvchanlik turini aniqlashda ishlataliadigan termozond usuli asosida yotuvchi fizik hodisa.
  21. Solishtirma qarshilikni o'lhashda ishlataladigan to'rt zondli usulni o'lhashda namunaga qo'yiladigan talablar.
  22. Dielektrikdagи dielektriklar yo'qotishlar, ularning turi va ularni aniqlash usullari.
  23. Yarimo'tkazgich namunasining yuzasi refejini analiz qilish usullari.
  24. Yarimo'tkazgichlar materiallari yuzasi himoyaviy tarkibini analiz qilish usullari.
  25. Yarimo'tkazgich materiallar yuzasini atomlar strukturasi ni analiz qilish usullari.

## Мундарижа

|  |
|--|
| 1 - QIYINLIK DARAJADAGI MASALALAR .....                                |
| 2 - QIYINLIK DARAJADAGI MASALALAR .....                                |
| 3 - QIYINLIK DARAJADAGI MASALALAR .....                                |
| 4 - QIYINLIK DARAJADAGI MASALALAR .....                                |
| 1. Yarimo'tkazgichlardagi elektronlar va kovaklar statistikasi .....   |
| 2. Yarimo'tkazgichlardagi zaryad tashuvchilar rekombinasiyasi .....    |
| 3. Zaryad tashuvchilarning diffuziyasi va dreyfi .....                 |
| 4. Magnit maydonda zaryad tashuvchilarning diffuziyasi va dreyfi ..... |
| 5. Sirtiy hodisalar .....  |
| 6. Yarimo'tkazgichdagi termo elektr yurituvchi kuch (EYuK) .....       |
| 7. Yarimo'tkazgichlarda foto EYuK .....                                |
| MASALALARING JAVOBLARI VA YECHIMLARI .....                             |
| 1 - qiyinlik darajadagi masalalarning javoblari .....                  |
| 2 - daraja qiyinlikdagi masalalarning javoblari .....                  |
| 3 - daraja qiyinlikdagi masalalarning javoblari .....                  |
| 4 - daraja qiyinlikdagi masalalarning javoblari .....                  |
| NAZORAT SAVOLLARI: .....   |

---

K.A. Tursunmetov, U.Q.Valiyev, H.Yu. Mavlyanov, I.X. Xamidjonov

## YARIMO'TKAZGICHLAR FIZIKASIDAN MASALALAR VA SAVOLLAR TO'PLAMI (O'quv qo'llanma)

15.05.2012 йилда теришга берилди. 24.12.2012 йилда босишига  
рухсат этилди. Бичими 60·84, 1/16. Хажми 7,0 босма табок.  
Адади 500 дона. Буюртма 56. Бахоси келишмалган нархда.

---

“Фахризода” КТКК. Дустлик шох кучаси, 2 “А” уй,  
Наманган шаҳри.

ISBN 978-9943-328-85-3



9 789943 328853

